Особое внимание уделяется развитию государственно-частного партнёрства (ГЧП), которое позволяет реализовывать крупные инфраструктурные проекты с участием частного капитала.

В долгосрочной перспективе Узбекистан имеет все предпосылки для превращения в один из инвестиционных центров Центральной Азии. Продолжение реформ, направленных на либерализацию экономики, развитие рыночных

институтов и повышение прозрачности государственного управления, позволит значительно улучшить инвестиционный климат.

Особую роль будут играть инновации и цифровая экономика, которые открывают новые возможности для привлечения инвестиций и создания высокотехнологичных производств.

Повышение привлекательности инвестиционной среды в Узбекистане является комплексной задачей, требующей системного подхода и последовательной реализации реформ. Уже достигнутые результаты свидетельствуют о правильности выбранного курса, однако для дальнейшего развития необходимо продолжать работу по устранению существующих барьеров и созданию благоприятных условий для бизнеса.

В результате успешной реализации намеченных мер Узбекистан сможет не только увеличить объём привлекаемых инвестиций, но и обеспечить устойчивое экономическое развитие, повышение конкурентоспособности и улучшение качества жизни населения.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ И УКРЕПЛЕНИЕ БЮДЖЕТНОЙ ДИСЦИПЛИНЫ.

Абдужалилова Дилноз Абдусатторовна
PhD., доцент кафедры «Бюджетный учет и казначейство»
Аскаралиев Абдулахад
студент 4-курса ТГЭУ

Аннотация. В данной работе рассматриваются актуальные вопросы трансформации государственного финансового контроля (ГФК) в Узбекистане в условиях реализации стратегии Узбекистан. Особое внимание уделено значению совершенствование системы государственного финансового контроля и укрепление бюджетной дисциплины, её влиянию на социально-экономическое развитие страны и повышению доверия общества к государственным институтам, внедрению цифровых технологий и укреплению бюджетной ответственности распорядителей средств.

Ключевые слова: аудит эффективности, бюджетная дисциплина, государственный бюджет, государственный финансовый контроль, доходы бюджета, финансовая прозрачность, цифровизация.

В условиях реализации стратегии Узбекистан и стремления страны к статусу государства с доходом выше среднего, эффективность использования бюджетных средств становится особым упором. Традиционными методами контроля за изменением риск-ориентированных подходов, что продиктовано необходимость

снижения дефицита бюджета (целевой показатель — менее 3% ВВП) и минимизации коррупционных рисков.

Государственный финансовый контроль - изучение, анализ и сопоставление бухгалтерских, финансовых, статистических, банковских и иных документов объектов государственного финансового контроля с целью осуществления контроля за исполнением бюджетного законодательства.

Системные барьеры и противоречия в сфере государственного финансового контроля: Высокий уровень неформальной экономики, наличие значительного теневого сектора ограничивает налоговый потенциал и искажает объективность планирования бюджетных доходов. Несмотря на реформы, сохраняются определенные барьеры. Большинство нарушений выявляется уже после того, как средства потрачены, что затрудняет их возмещение. Риски коррупции при проведении очных проверок. Недостаточный обмен информацией между налоговыми, таможенными и казначейскими органами в режиме реального времени.

Для повышения эффективности предлагаются следующие меры: Полная автоматизация процессов через системы «UzASBO 2» и «ИСУГФ». Внедрение модулей искусственного интеллекта для выявления аномальных транзакций. Расширение практики проверок без посещения объекта (камеральный контроль) на основе анализа больших данных (Big Data). Внедрение стандартов ИНТОСАИ, адаптация методологии внешнего аудита Счетной палаты к мировым стандартам независимости и прозрачности.

10 июля 2024 года был принят Указ Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по усилению финансового контроля за использованием бюджетных средств»[83]. В нем определены задачи по совершенствованию систем внутреннего аудита в министерствах и государственных органах, а также проведению внешнего аудита исполнения консолидированного бюджета. Продолжается процесс цифровой трансформации ведомства: внедрена автоматизированная информационная система (ИС) «Дистанционный аудит», в нее интегрированы 34 министерства и ведомства. В результате в 2024 году Счетная палата за счет новых источников обеспечила дополнительные поступления в бюджет на сумму 3,7 триллиона сумов. Оптимизированы неэффективные расходы министерств и ведомств на 9,2 триллиона сумов, предотвращены финансовые недочеты на 2,3 триллиона сумов. В сфере государственных закупок были выявлены и устранены недостатки на 4,5 триллиона сумов. Системную работу в этом направлении необходимо продолжить и в нынешнем году, отмечалось на совещании. С этой целью в ИС «Дистанционный аудит» Счетной палаты будут

[83] Указ Президента Республики Узбекистан, от 10.07.2024 г. № УП-100 , https://lex.uz/uz/docs/7015255

интегрированы базы данных 110 министерств и ведомств. Это позволит в нынешнем году полностью охватить мониторингом бюджетные расходы в объеме 480 триллионов сумов. С этой целью в ИС «Дистанционный аудит» Счетной палаты будут интегрированы базы данных 110 министерств и ведомств.[84]

Постоянной задачей остаются выявление дополнительных источников доходов бюджета, предотвращение финансовых и иных рисков, важное значение имеет также мониторинг финансовой деятельности предприятий с долей государства. Совершенствование системы ГФК в Узбекистане должно идти по пути создания «умного контроля». Это позволит не только сэкономить триллионы сумов бюджетных средств, но и повысить доверие населения и инвесторов к государственной финансовой политике. Переход к цифровому превентивному аудиту является единственным способом обеспечения устойчивости национальной экономики в долгосрочной перспективе.

DAVLAT ORGANLARIDA ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH

Toshbekova Shaxnoza
Toshkent xalqaro universiteti stajyor tadqiqotchisi

Jahon amaliyotida davlat organlarida ichki moliyaviy nazoratni tashkil etish boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Ko‘plab davlatlarda ushbu tizim risklarga asoslangan yondashuv, ichki auditning mustaqilligi va axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirilmoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga (Organisation for Economic Co-operation and Development) a’zo mamlakatlarida ichki moliyaviy nazorat boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim instrument bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tashqi audit standartlari davlat sektorida moliyaviy intizomni mustahkamlash va shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan yagona yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish doirasida ichki moliyaviy nazorat mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan byudjet intizomini kuchaytirish va nazorat funksiyalarini modernizatsiya qilish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotda nazorat jarayonlarining samaradorligini oshirish, risklarni baholash va ichki audit sifatini yaxshilashga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Shu jihatdan, mazkur mavzu davlat organlarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash va hisobdorlikni kuchaytirish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

[84] https://president.uz/ru/lists/view/7827

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida “davlat ichki moliyaviy nazorati” konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu konsepsiya bugungi kunda yanada rivojlantirigan va “davlat ichki nazorati” deb yuritilmoqda.

Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlarda davlat ichki nazorati holati o‘rganilib boriladi[85]. Mazkur davlat ichki nazorati tizimining markazida Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlar qo‘mitasi (The Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO)) tomonidan ishlab chiqilgan “Ichki nazorat – integratsiyalashgan model (Internal Control – Integrated Framework)”[86] turadi.

Shuning uchun ham bizningcha mamlakatimizda ham davlat moliyaviy nazoratini konseptual rivojlantirishda davlat ichki nazoratini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat organlarida ichki nazoratni takomillashtirish yo‘nalishida foydalanilishi mumkin bo‘lgan xalqaro tajribalar va ma’lumotlar qatoriga yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlar qo‘mitasi (The Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission (COSO)) tomonidan ishlab chiqilgan “Ichki nazorat – integratsiyalashgan model (Internal Control – Integrated Framework)” bilan birgalikda Xalqaro oliy audit organlari tashkiloti (INTOSAI) tomonidan Davlat sektorida ichki nazoratni tashkil etish bo‘yicha standarti[87] (ISSAI 9100), shuningdek, AQSHning Hukumat hisobdorlik ofisi tomonidan ishlab chiqilgan (United States Government Accountability Office (GAO)) Federal xukumatda ichki nazorat standarti[88] (Standards for Internal Control in the Federal Government)ni keltirib o‘tishimiz mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilgan model va standartlarda davlat organlari boshqaruvida ichki nazoratni tashkil etishning institutsional va funksional jihatlari keltirib o‘tilgan. Xususan, Xalqaro oliy audit organlari tashkiloti va AQSHning Hukumat hisobdorlik ofisi tomonidan ishlab chiqilgan ichki nazorat tizimlariga asos sifatida qabul qilingan “Ichki nazorat – integratsiyalashgan model”i tarkibi 5 ta komponent va 17 ta tamoyillardan iborat bo‘lib, unda ichki nazorat tizimini tashkil etishning konseptual asoslari hamda tarkibi keltirilgan. Mazkur modelda ichki nazorat tizimi nazorat muhiti, xavflarni baholash, nazorat jarayonlari, axborot va kommunikatsiya hamda monitoring komponentlaridan iborat.

---

[85]COMPENDIUM of the public internal control systems in the EU Member States. Internet manba: https://op.europa.eu/en/publication- Yevropa Ittifoqining publikatsiyalar sayti. Murojaat qilingan sana: 2025-yil 16-mart.

[86] Internal Control – Integrated Framework. www.coso.org- Tredvey komissiyasining homiy tashkilotlar qo‘mitasining rasmiy internet sayti. Murojaat qilingan sana: 2025 yil 5-yanvar.

[87] Guidelines for Internal Control Standards for the Public Sector. www.issai.org - Xalqaro oliy audit organlari tashkiloti(INTOSAI)ning standartlarining rasmiy internet sayti. Murojaat qilingan sana: 2025 yil 7 yanvar.

[88] Standards for Internal Control in the Federal Government. www.gao.gov- AQSHning Hukumat hisobdorlik ofisining rasmiy internet sayti. Murojaat qilingan sana: 2025 yil 2-fevral.

1. Nazorat muhiti ichki nazorat – integratsiyalashgan modelida davlat organlariga yuklatilgan vazifalar va majburiyatlarni bajarilishini ta’minlovchi tashkiliy tuzilma, siyosat, tartib-taomillar va xodimlar xulq-atvor qoidalarini o‘z ichiga oladi.

2. Xavflarni boshqarish ichki nazoratning ikkinchi muhim komponenti bo‘lib, u o‘z ichiga davlat organlari faoliyatini amalga oshirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavflarni aniqlash, baholash, kamaytirish va monitoring qilishga qaratilgan jarayonlarni qamrab oladi.

3. Nazorat jarayonlari ichki nazoratning uchinchi komponenti hisoblanadi. Nazorat jarayonlari davlat organlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishga salbiy ta’sir etuvchi xavflarni kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

4. Axborot va kommunikatsiya tizimi ichki nazoratda kelajakda ham o‘z muhimligini karrasiga oshirib boradigan komponent hisoblanadi. Davlat organlarida samarali ichki nazorat tizimini yo‘lga qo‘yishda rahbariyat va xodimlarning kerakli axborot va ma’lumotlarni olishi, tahlil qilishi va manfaatdor tomonlarga taqdim etishi imkoniyati ta’minlanishi zarur.

5. Ichki nazorat tizimining monitoringini amalga oshirish davlat organida hisobdorlikni yanada mustahkamlashi sababli ichki nazoratning beshinchi komponenti hisoblanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda ham ichki moliyaviy nazorat xalqaro standartlarini davlat organlari faoliyatiga joriy etish orqali moliyaviy xavflarni kamaytirish, hisobdorlik, mas’uliyat va javobgarlikni oshirish ta’minlanadi.

Bizningcha, mamlakatimizda ichki moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish dastlabki va joriy nazoratni yanada takomillashishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda ichki moliyaviy nazoratni rivojlanishi davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi, ichki va tashqi audit kabi maxsus tashkil etilgan tuzilmalar ish xajmini kamaytiradi va ulardan davlat organlarining barcha tuzilmalariga ham o‘tadi. Bu esa moliyaviy nazoratning tashqi shaklini cheklaydi va ichki moliyaviy intizom bo‘yicha barcha tuzilmalarning javobgarligini o‘zlariga biriktirilishiga olib keladi. Javobgarlik va mas’uliyat markazlarining bevosita davlat organlarining vazifa va funksiyalarini bajaradigan barcha tarkibiy tuzilmalariga o‘tkazilishi orqali moliyaviy intizomning yangi arxitekturasi yaratiladi. Ushbu arxitekturada moliyaviy intizom va mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishga faqat ularni ichki nazoratini amalga oshiradigan maxsus tuzilmalargina emas balki barcha tarkibiy tuzilmalari mas’ul va javobgar hisoblanadi.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО АУДИТА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ СОЦИАЛЬНЫХ РАСХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Н.Юлдашева
Научный руководитель: доц. кафедры «Бюджетный учет и казначейство»
Д.И. Зайнуллина
Магистрант специальности
«Государственный финансовый контроль и аудит», ТГЭУ

В условиях глубоких социально-экономических преобразований, происходящих в Республике Узбекистан, особую значимость приобретает исследование вопросов, связанных с повышением эффективности использования бюджетных средств, направленных на социальные нужды. Современные тенденции развития государственной финансовой системы демонстрируют, что именно целевое и рациональное расходование ресурсов в социальной сфере определяет качество реализации социальной политики, уровень благополучия населения и устойчивость социально-экономического развития страны. В этой связи государственный аудит выступает как ключевой инструмент, обеспечивающий системный контроль и объективную оценку использования бюджетных средств в разрезе социальных программ.

Следует подчеркнуть, что значительная часть бюджета Узбекистана ежегодно направляется на финансирование социально значимых отраслей: образования, здравоохранения, социальной защиты, развития человеческого капитала. Однако, как показывают существующие исследования, даже при увеличении объёмов финансирования не всегда достигается соответствующий уровень результативности. Это объясняется рядом факторов, среди которых можно выделить фрагментарность контроля, недостаточный уровень прозрачности отдельных финансовых операций, отсутствие комплексной системы оценки эффективности социальных расходов и несогласованность действий органов, осуществляющих контрольные функции. В данных условиях роль государственного аудита не только возрастает, но и приобретает стратегический характер.

Современная система государственного аудита в Республике Узбекистан представляет собой многоуровневый институт, включающий механизмы внешнего и внутреннего аудита, деятельность Счётной палаты, специализированных подразделений в различных министерствах и ведомствах. Как свидетельствует анализ нормативных источников, в последние годы предпринимаются последовательные шаги по модернизации аудиторской деятельности, внедрению цифровых решений, стандартизации процедур контроля и повышению открытости

информации для общества. Вместе с тем проведённые исследования показывают, что потенциал государственного аудита остаётся реализованным не в полной мере, что обусловлено рядом институциональных и технологических ограничений.

Одним из наиболее значимых препятствий, влияющих на результативность социально ориентированных расходов, является отсутствие унифицированной методики оценки эффективности бюджетных программ. В результате органы контроля вынуждены использовать разрозненные инструменты, что существенно затрудняет комплексную оценку конечных результатов. Более того, значительная часть данных о реализации социальных проектов носит описательный характер, что снижает объективность анализа. Как следствие, фактическое влияние бюджетных программ на улучшение социальных показателей оценивается не всегда корректно.

Наряду с этим необходимо отметить проблему недостаточной открытости результатов государственного аудита. Ограниченный доступ населения и независимых исследователей к данным о реализации социальных программ снижает уровень общественного контроля, который в современных условиях является важнейшим элементом эффективного управления государственными финансами. Международный опыт показывает, что высокий уровень прозрачности аудиторской деятельности способствует минимизации коррупционных рисков, повышению ответственности должностных лиц и улучшению качества управления расходами.

В контексте изучения перспектив развития государственного аудита важной задачей выступает внедрение современных цифровых решений. Как показывают исследования, применение технологий больших данных, автоматизированных аналитических систем, цифровых платформ мониторинга и оценки способно существенно повысить точность контроля, ускорить выявление нарушений и обеспечить объективность аудиторских заключений. Использование цифровых инструментов позволяет формировать единую информационную среду, связывающую органы исполнительной власти, контрольные органы, казначейство и социальные учреждения.

С учётом вышеизложенного можно утверждать, что дальнейшее повышение эффективности социальных расходов возможно только при условии интеграции трёх взаимосвязанных компонентов: совершенствования нормативной базы, модернизации цифровой инфраструктуры и укрепления институционального потенциала органов государственного аудита. В частности, представляется целесообразным разработать комплексные критерии результативности социальных программ, включающие количественные и качественные показатели; внедрить обязательные процедуры пост-аудита всех крупных социальных проектов; обеспечить публичное раскрытие данных о расходовании бюджетных средств.

Реализация данных задач позволит повысить уровень доверия населения к государственным институтам и обеспечить более ответственное отношение к использованию ресурсов.

Кроме того, важным направлением выступает развитие внутреннего аудита в министерствах и ведомствах, непосредственно управляющих социальными программами. Усиление внутреннего контроля позволяет своевременно выявлять риски, повышает финансовую дисциплину, способствует сокращению избыточных расходов и предотвращает дублирование функций. Внедрение стандартизированных процедур внутреннего аудита позволит усилить взаимодействие с внешними контрольными органами и создать единую систему мониторинга социальных расходов.

Таким образом, можно сделать вывод о том, что государственный аудит в Республике Узбекистан является фундаментальным инструментом обеспечения эффективности, прозрачности и подотчётности в сфере социальных расходов бюджета. Комплексное развитие системы аудита, внедрение современных технологий, совершенствование законодательства и расширение общественного контроля создают институциональные предпосылки для формирования устойчивой, результативной и социально ориентированной модели управления государственными финансами. Проведённый анализ позволяет утверждать, что дальнейшее развитие государственного аудита является объективной необходимостью, обусловленной стратегическими целями модернизации социальной политики страны .

Современный этап развития государственного управления в Узбекистане показывает переход к такой модели, где важна измеримость и доказательность принимаемых решений. В этом контексте государственный аудит социальных расходов выполняет не только проверочную, но и аналитико-прогностическую функцию, что позволяет выстраивать более системный подход к управлению бюджетными ресурсами. Таким образом, аудит становится инструментом не просто для выявления нарушений, а для своевременного обнаружения возможных отклонений, рисков недостижения плановых показателей и факторов, которые могут негативно повлиять на реализацию социальных программ .Анализ зарубежной и отечественной практики показывает, что наилучшие результаты достигаются тогда, когда аудит является частью процессов планирования, исполнения и последующего контроля государственной политики, а не изолированной процедурой . Это подчёркивает необходимость укрепления институциональной базы аудита и совершенствования его методов с учётом текущих социально-экономических изменений.

В этой связи значительную важность приобретает внедрение риск-ориентированного подхода, предполагающего распределение аудиторских

ресурсов в зависимости от уровня вероятности возникновения нарушений и масштабности их возможных последствий . Такой механизм обеспечивает более рациональное использование потенциала контрольных органов, концентрируя внимание на наиболее чувствительных направлениях социальных расходов - финансировании медицинских услуг, школьного питания, образовательных субсидий и инфраструктурных проектов . Более того, интеграция риск-ориентированного анализа с цифровыми инструментами мониторинга создаёт предпосылки для формирования непрерывной системы контроля, функционирующей в режиме реального времени. Это обеспечивает принципиально новый уровень прозрачности, снижает вероятность коррупционных действий, усиливает подотчётность должностных лиц и способствует формированию современной, ориентированной на фактические результаты модели управления социальными расходами, что соответствует стратегическим ориентирам социально-экономического развития Республики Узбекистан.

СУЩНОСТЬ, ПОНЯТИЕ И МЕСТО СТРАТЕГИЧЕСКОГО АУДИТА В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Абдужалилова Дилноз Абдусатторовна
PhD., доц. кафедры «Бюджетный учет и казначейство»
Орипжонов Бекзод Шерзоджон угли
Магистрантспециальности
«Государственный финансовый контроль и аудит», ТГЭУ

Аннотация. В тезисе рассматриваются теоретические основы стратегического аудита применительно к системе государственного финансового контроля Республики Узбекистан: раскрывается его понятие, сущность и место среди иных видов государственного аудита. Анализируется эволюция нормативно-правовой базы - от создания Счётной палаты в 1992 году до принятия Указов Президента № УП-100 (2024) и № УП-252 (2025), официально закрепивших стратегический аудит и стандарты ИНТОСАИ.

Ключевые слова: аудит эффективности, государственный финансовый контроль, стратегический аудит, стратегическое планирование, ИНТОСАИ,

В условиях реализации масштабных государственных преобразований в Республике Узбекистан под руководством Президента Шавката Мирзиёева неуклонно возрастает роль государственного финансового контроля как инструмента обеспечения эффективного использования бюджетных ресурсов и достижения стратегических целей национального развития.

В научной литературе стратегический аудит трактуется неоднозначно. В широком смысле он понимается как система независимых мероприятий по оценке обоснованности, согласованности и реализуемости государственных стратегических целей. В узком, нормативном смысле стратегический аудит- это вид внешнего государственного аудита (контроля), применяемый в целях оценки реализуемости, рисков и результатов достижения стратегических целей, а также влияния внешних и внутренних факторов на их достижение. Данное определение воспроизведено в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-100 от 10 июля 2024 года, официально введшем стратегический аудит в систему деятельности Счётной палаты Республики Узбекистан.

Сущность стратегического аудита раскрывается через его двойственную природу. С одной стороны, он является неотъемлемой частью системы государственного финансового контроля: независимым, объективным и законодательно закреплённым инструментом надзора за государственными ресурсами. С другой стороны, стратегический аудит качественно выходит за рамки традиционного финансового контроля: его объектом служат не отдельные финансовые операции, а сами государственные стратегии, национальные цели и долгосрочные программы развития. В системе ГФК Узбекистана он занимает роль «аудита государственной политики» - инструмента, связывающего стратегические намерения власти с реальными результатами их практической реализации.

Генезис концепции стратегического аудита применительно к государственному управлению восходит к деятельности Международной организации высших органов финансового контроля - ИНТОСАИ.

Таблица 1

Сравнительное соотношение видов государственного аудита применительно к системе ГФК Республики Узбекистан.

Критерий	**Финансовый аудит**	**Аудит соответствия**	**Аудит эффективности**	**Стратегический аудит**
Объект	Финансовая отчётность	Соответствие НПА	Государственные программы	Стратегические цели
Временной горизонт	Отчётный период	Отчётный период	3–5 лет	5–10 лет
Критерии	Достоверность, правомерность	Законность, нормативность	Экономность, результативность	Реализуемость, согласованность
Нормативная основа (РУз)	Закон о бухучёте	БК РУз, ЗРУ-546	ISSAI 3000, СГА РУз	УП-100 (2024), УП-252 (2025)
Адресат	Руководство, учредители	Парламент (Олий Мажлис)	Кабинет Министров	Президент, Олий Мажлис

Система государственного финансового контроля Республики Узбекистан включает несколько уровней: внешний государственный аудит (Счётная палата), ведомственный внутренний аудит (Министерство экономики и финансов и службы внутреннего аудита государственных органов, налоговый и таможенный контроль. В этой системе стратегический аудит занимает высший, интегрирующий уровень: он не подменяет иные виды контроля, а объединяет их результаты для формирования системной оценки государственных стратегий.

По видам аудиторской деятельности международная классификация ИНТОСАИ (стандарты ISSAI) выделяет:

- ✓ финансовыйаудит,
- ✓ аудит соответствия
- ✓ аудит эффективности.

Стратегический аудит является ключевым элементом системы государственного финансового контроля Республики Узбекистан, обеспечивая оценку не отдельных операций, а стратегических целей государства и их практической реализации. Его сущность отражает двойственный характер: с одной стороны, это независимый и законодательно закреплённый инструмент контроля государственных ресурсов, с другой - аналитический механизм оценки национальных стратегий и долгосрочных программ развития.

В системе ГФК стратегический аудит занимает интегрирующую роль, объединяя результаты финансового, соответствующего и аудита эффективности для формирования комплексной оценки государственных стратегических целей. Он позволяет не только выявлять нарушения и риски, но и оценивать правильность постановки целей, их согласованность и реализуемость в существующих условиях, что делает его уникальным и незаменимым инструментом управления.

ICHKI AUDIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA

BUDJET TIZIMIDA HISOB VA HISOBOTNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich
TDIU “Budjet hisobi va g‘aznachilik” kafedrasi professori

Budjet tizimida hisob va hisobot davlat moliyasining shaffofligini ta’minlash, budjet mablag‘laridan samarali foydalanishni monitoring qilish va ijtimoiy dasturlarning bajarilish darajasini baholashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyaviy resurslarining masshtabi kengayishi, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish oqimlarining ko‘payishi va raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi budjet hisob va hisobot tizimini zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashtirishni taqozo etmoqda. Budjet hisobining to‘g‘ri yuritilishi nafaqat moliyaviy intizom, balki davlat boshqaruvining samaradorligi va fuqarolar ishonchini oshirishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro standartlar va ilmiy tadqiqotlar budjet hisobini turli yondashuvlarda talqin qiladi. Xususan, xalqaro davlat sektori hisob standartlari moliyaviy hisobotlarni shaffof, qiyosiy va xalqaro amaliyotga mos bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan[2]. Shu bilan birga, ilmiy manbalarda davlat hisobotining asosiy maqsadi faqat moliyaviy axborot berish emas, balki ijtimoiy siyosat samaradorligi va davlat dasturlari natijadorligini aks ettirish ekani qayd etilgan. Demak, budjet hisobini modernizatsiya qilish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

O‘zbekistonda ham budjet hisob va hisobot tizimi so‘nggi yillarda tubdan yangilanmoqda. Xususan, davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish konsepsiyasi doirasida budjet jarayonlarini raqamlashtirish, yagona g‘azna buyruqlari tizimini joriy etish, “Ochiq budjet” portalini kengaytirish ishlari amalga oshirilmoqda. Budjet hisobotining avtomatlashuvi hisob yuritish tezligi va aniqligini oshirgan bo‘lsa-da, tahlillar ko‘rsatmoqdaki, metodologik jihatda hali yechim talab qiladigan bir qator muammolar mavjud.

Shu jumladan, amaliyotda budjet tasnifi bo‘yicha xarajatlarni noto‘g‘ri toifalash, transfertlar va subsidiyalarni tan olish mezonlarini har xil talqin qilish, hisob siyosatida yagona standartning yo‘qligi, tahlil va audit uchun tayyorlangan ma’lumotlarning kamligi, natija indikatorlarining hisobotlarda aks etmasligi kabi muammolar qayd etilmoqda.

Xalqaro tahlillar ko‘rsatadiki, budjet hisobotining zamonaviy modeli moliyaviy ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish[5]. Demak, budjet hisobini shunchaki “daromad–x expenditure” modelida yuritish zamonaviy boshqaruv talablariga javob bermaydi. Shu boisdan, nazariy va amaliy muammolardan kelib chiqib maqolaning markaziy ilmiy muammosi zamonaviy budjet tizimida hisob va hisobot qanday nazariy va metodologik model asosida tashkil etilganda davlat moliyasining shaffofligi, samaradorligi va ijtimoiy natijadorligi to‘liq aks ettiriladi, degan fikr izlanish olib borishni talab etmoqda. Budjet hisobi va hisobotini takomillashtirishda odatiy “buxgalteriya funksiyasi” modelidan farqli ravishda “fiskal boshqaruv - ijtimoiy natija - raqamli shaffoflik” integratsiyasiga asoslangan metodologik yondashuv ilgari suriladi. Bu yondashuv davlat moliyasi axborotini faqat sarflangan mablag‘lar emas, balki ijtimoiy dasturlar natijadorligi va xizmat samaradorligi nuqtai nazaridan aks ettirishni nazarda tutadi.

Ushbu tadqiqotda budjet tizimida hisob va hisobotning zamonaviy muammolarini aniqlash, ularning davlat moliyasi samaradorligiga ta’sirini baholash va hisobotni takomillashtirish bo‘yicha uslubiy modelni ishlab chiqish maqsad qilingan. Metodologik yondashuv tadqiqot maqsadlariga mos ravishda nazariy, normativ, statistik va qiyosiy tahlil elementlarini birlashtirgan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning nazariy poydevori davlat moliyasi nazariyasi, budjet hisobi metodologiyasi va natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish konsepsiyalariga asoslandi. Davlat sektorida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IPSAS), OECD, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF)dagi davlat moliyasini boshqarish modellari nazariy manba sifatida qabul qilindi. Tadqiqotni amalga oshirishda “Budjet hisobi va hisobotining samaradorlik modeli” (BHHSM) ishlab chiqildi. Mazkur model budjet hisobotini faqat moliyaviy axborot emas, balki, ijtimoiy va institutsional natijalarni hisobga olgan holda shakllantirishni nazarda tutadi. BHHSM quyidagi besh indikator asosida qurilgan.

1- jadval

Budjet hisobi va hisobotining samaradorligini belgilovchi indikatorlar tarkibi[89]

Indikator	Mazmun
I1	Moliyaviy shaffoflik
I2	Davlat xarajatlarining samaradorligi
I3	Jamoatchilikka hisobdorligi
I4	Raqamlashtirishdarajasi
I5	Ijtimoiy natijadorlik

[89] Mualliftomonidan ishlab chiqilgan

Indikatorlarni tanlash tajribaviy ilmiy manbalardagi yondashuvlar negizida amalga oshirildi.

Tadqiqotda 2020–2025 yillarga oid normativ-huquqiy hujjatlar, “Ochiq budjet” platformasii, 2020–2025 yillarga oid statistik ma’lumotlar, OECD, IMF, World Bank hisobotlari axborot manbasi sifatida

Tadqiqotda milliy va xalqaro talablarni qiyosiy baholash uchun normativ tahlil, budjet hisobotining xorijiy va mahalliy tajribalarini taqqoslash uchun qiyosiy tahlil, BHHSM indikatorlari bo‘yicha baholashning indekslash, 2020–2025 yillar budjet ma’lumotlari asosida dinamik tahlil usullaridan foydalanildi.

BHHSM indeksi har bir indikator bo‘yicha 0–5 ball shkalasi asosida hisoblandi va umumiy indeks quyidagi formula asosida aniqlandi:

BHHSM=I1+I2+I3+I4+I55BHHSM = \frac{I1 + I2 + I3 + I4 + I5}{5}BHHSM=5I1+I2+I3+I4+I5

Tadqiqot jarayonida budjet hisobi va hisobotlarida ijtimoiy natijadorlik ko‘rsatkichlarining to‘liq yo‘qligi, elektron budjet platformalarida ma’lumotlar standartlashtirilmagan holda taqdim etilishi, xalqaro hisobot formatlarini to‘liq joriy etishning uzoq muddatli ekanligi kabi cheklovchi omillar kuzatildi. Shu bilan birga, ushbu cheklovlar natijalarning ishonchliligi va tadqiqotning amaliy ahamiyatini susaytirmaydi. Aksincha, budjet hisobi va hisobotini takomillashtirish uchun qanday o‘zgarishlarni amalga oshirish lozimligini aniq ko‘rsatib beradi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “Budjet hisobi va hisobotining samaradorlik modeli (BHHSM)” asosida 2020 - 2025 yillarda O‘zbekiston budjet tizimining hisob va hisobot jarayonlari samaradorligi kompleks baholandi. Baholash jarayonida davlat moliyasi hisobotlarining shaffofligi, xarajatlar samaradorligi, jamoatchilik nazorati, raqamlashtirish darajasi va ijtimoiy natijadorlik kabi beshta indikator qamrab olindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 2025 yilga kelib budjet hisobi va hisobotining raqamlashuvi va ma’lumotlarning ommaviy ochiqlanishida yuqori o‘sish qayd etilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy natijadorlik ko‘rsatkichlarining hisobotlarda aks etmasligi hali ham asosiy muammo bo‘lib turibdi.

2- jadval


BHHSM indikatorlari bo‘yicha yillar kesimida baholash natijalari (0–5 ball shkalasi)[90]

Yil	Moliyaviy shaffoflik (I1)	Xarajatlar samaradorligi (I2)	Jamoatchilik nazorati (I3)	Raqamlashtirish darajasi (I4)	Ijtimoiy natijadorlik (I5)	Umumiy indeks (BHHSM)
020	2,4	2,1	2,0	2,3	1,8	2,12

[90] Mualliftomonidan tadqiqot kuzatuvlari asosida shakllantirilgan

021	2,6	2,4	2,1	2,8	1,9	2,36
022	3,1	2,7	2,5	3,4	2,0	2,74
023	3,4	2,9	2,9	4,1	2,2	3,10
024	3,8	3,2	3,4	4,4	2,4	3,44
025	4,1	3,5	3,7	4,6	2,7	3,72

Ushbu jadvalda 2020–2025 yillar davomida davlat moliyasi hisobotining jadal rivojlanayotgani, ayniqsa raqamlashuv va shaffoflik indikatorlari bo‘yicha yuqori o‘sish sur’atlari kuzatilgani namoyon bo‘ladi. Biroq, ijtimoiy natijadorlik indikatori barcha yillarda eng past darajada qolmoqda. Bu ayni haqiqatni ko‘rsatadiki, budjet hisobotlarida ijtimoiy samarani aks ettiruvchi mezonlar hali to‘liq joriy etilmagan.



1-rasm. BHHSM indikatorlari umumiy dinamikasi (2020–2025)[91]

Moliyaviy shaffoflik (I1) — tez va barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xarajatlar samaradorligi (I2) o‘rtacha o‘sgan, jamoatchilik nazorati (I3) sezilarli o‘sgan, raqamlashtirish darajasi (I4) eng yuqori o‘sish darajasiga ega bo‘lgan, ijtimoiy natijadorlik (I5) esa, past va sekin o‘sib borgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, raqamlashtirish (I4) indikatori 2020–2025 yillarda eng tez o‘sgan (4.6 ball), bu elektron budjet platformalarining yaratilishi va avtomatlashtirish jarayonlari bilan bog‘liq.

Biroq, ijtimoiy natijadorlik indikatori (I5) 2025 yilda ham 2.7 balldan oshmagan — bu budjet xarajatlari aholining hayot sifatiga qay darajada ta’sir ko‘rsatayotganini o‘lchash mezonlari hisobotlarda to‘liq joriy etilmaganini anglatadi.

Tadqiqot natijalari ijtimoiy natijadorlik indikatorining past bo‘lishi budjet hisobotlari xizmatni bajarish natijalarini emas, mablag‘ harakatini aks ettiradi, ijtimoiy dasturlarni baholash mezonlari har doim ham tavsifiy, muassasalar darajasida KPI sistemasi yetarli emas, ijtimoiy foyda va ta’sir metrikalari normativ hujjatlarda belgilab qo‘yilmaganligi tufaylidir. Bu holat xorijiy tadqiqotlar bilan ham tasdiqlanadi. Jumladan,

[91] Muallif tomonidan tadqiqot kuzatuvlari asosida shakllantirilgan

Robinson budjet hisoboti natijadorlik ko‘rsatkichlarini aks ettirmagan holatda qaror qabul qilish ijtimoiy samaradorlikni pasayishi ni ta’kidlaydi.

BHHSM indeksi 2020 yilda 2,12 ballni tashkil etgan bo‘lsa, 2025 yilda 3,72 ballga yetgan - bu 75 foiz o‘sish demakdir. Bu o‘zgarish elektron budjet platformalarining yuqori o‘sishi, g‘azna monitoringi va xarajatlar tahlil qilib borilishining o‘rtacha o‘sishi hamda ijtimoiy natijadorlik bahosining yo‘qligi kabi omillar hisobiga yuz bergan.

Tadqiqot natijalari budjet tizimida hisob va hisobotni takomillashtirish jarayonida ayrim yo‘nalishlar sezilarli rivojlanayotganini, ayrimlari esa, hali yetarli darajada takomillashmaganini ko‘rsatdi. Jumladan, raqamlashtirish va moliyaviy shaffoflik bo‘yicha ijobiy dinamika qayd etilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy natijadorlikni aks ettiruvchi indikatorlarning past bo‘lishi budjet hisobotining funksional ahamiyati hali ham to‘liq ro‘yobga chiqarilmaganini anglatadi. Bu holat xalqaro tadqiqotlardagi nazariy yondashuvlar bilan ham uyg‘undir. Jumladan, M.Robinsonning izlanish natijalariga ko‘ra, davlat moliyasi hisobotining zamonaviy maqsadi faqat fiskal intizomni ta’minlash emas, balki jarayon natijadorligini baholash va davlat dasturlarining ijtimoiy samarasini ochiqlash hisoblanadi.

Budjet hisobotining ratsionalligi va shaffofligi sohasida olingan natijalar OECD davlatlarida kuzatilgan tendensiyalar bilan ham mos keladi. Xususan, Budget Transparency Toolkit tadqiqotida budjet hisobotining ochiqligi davlat xizmatlarining sifatini oshirish va korrupsiya xavfini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan[6]. O‘zbekistonda ham, so‘nggi yillarda elektron budjet platformalarining joriy qilinishi va ma’lumotlarni ommaviy oshkor etish choralari ushbu tendensiyaning amaliyotdagi tasdig‘i sanaladi. Biroq, xorijiy davlatlar tajribasida jamoatchilik nazorati budjet hisobi va hisobotlarining ajralmas qismi sifatida qaror topgan bo‘lsa, mamlakatimizda jamoatchilik budjet nazoratining funksional mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, budjet hisobi va hisobotining raqamlashuvi tez rivojlanmoqda va turli reytinglarda yuqori o‘sish qayd etilmoqda. Bu jarayon elektron hisob va hisobot platformalarining ishga tushishi, avtomatlashtirilgan g‘azna tizimi, real vaqtda budjet hisobi, monitoringi va tahlil imkoniyatlari bilan bog‘liq. Biroq, raqamlashtirishning to‘liq samarasi ijtimoiy natijadorlik indikatorlari hisob va hisobot tizimiga integratsiya qilinmas ekan, o‘zini to‘liq namoyon qilmaydi.

Budjet hisobi va hisobotining mukammallashmagan yo‘nalishlaridan yana biri - xarajatlar samaradorligini baholash mezonlarining cheklanganligi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, infratuzilma va ijtimoiy himoya kabi yo‘nalishlarda budjet mablag‘lari ko‘plab sarflansa-da, davlat xizmatlarining foydasi va aholi turmush sifatiga ta’sirini hisobga olgan yagona baholash modeli amaliyotda mavjud emas. Bu holat ilmiy manbalardagi tanqidiy yondashuvga mos keladi. Xususan, Goldsmith infratuzilma loyihalarining iqtisodiy natijasi aksar hollarda yuqori baholanishi, ammo ijtimoiy foyda ko‘rsatkichlari

past baholanishi davlat moliyasi tahlilini bir tomonlama qoldirishiga olib kelayotganini ta’kidlaydi[7]. Shu bilan birga, milliy tadqiqotlarda ham budjet hisobotini takomillashtirish zarurati bazaviy ilmiy yechim sifatida e’tirof etilgan. Budjet hisobi va hisobotida standartlashtirish hamda yagona uslubiy talablarni joriy qilish infratuzilma, ta’lim va sog‘liqni saqlash tashkilotlarida hisobning qiyosiyligini oshirish zarur. Xalqaro amaliyot bilan mamlakatimiz budjet hisobi va hisobotini tizimini qiyoslash natijasi.

3- jadval

Budjet tizimida hisob va hisobot tizimlarining o‘ziga xos jihatlari[92]

Yo‘nalish	OECD davlatlarida	O‘zbekistonda
Shaffoflik	Yuqori darajada	O‘rtacha o‘sish
Raqamlashuv	To‘liq joriy etilgan	Tez sur’atda
Jamoatchilik nazorati	Institutsionallashgan	Rivojlanmoqda
Samaradorlikbahosi	KPI va PBB asosida	Cheklangan
Ijtimoiy natijadorlik	Hisobotning asosiy qismi	Hali to‘liq emas

Shunday qilib, mamlakatda budjet hisobi va hisobotining shaffofligi va raqamlashuvida muhim o‘sish bo‘lgan bo‘lsa-da, ijtimoiy natijadorlikni aks ettiruvchi indikatorlarning hisob va hisobot tizimiga to‘liq integratsiyasi kelgusidagi asosiy tamoyil bo‘lishi kerak. Bu jarayon amalga oshirilsa, budjet hisobi va hisoboti moliyaviy ma’lumotdan tashqari davlat xizmatlarining ijtimoiy samarasini aks ettiruvchi strategik instrumentga aylanadi.

Tadqiqot natijalari budjet tizimida hisob va hisobotni modernizatsiya qilish masalasi moliyaviy intizom yoki texnik jarayon doirasida emas, balki davlat boshqaruvining strategik samaradorligi nuqtai nazaridan hal qilinishi zarurligini ko‘rsatdi. Budjet hisobining asosiy maqsadi moliyaviy operatsiyalarni qayd etish bilan cheklanmasdan, davlat xarajatlarining ijtimoiy va iqtisodiy natijalarini aholi farovonligi va davlat xizmatlari sifati nuqtai nazaridan aks ettirishdan iborat bo‘lishi lozim. Tadqiqotda ishlab chiqilgan budjet hisobotining samaradorlik modeli (BHHSM) shu nuqtai nazarni amaliyotdagi tahlil jarayoniga joriy etish imkonini berdi.

Budjet hisobotining raqamlashuvi va shaffofligi bo‘yicha 2019–2024 yillarda sezilarli o‘sish qayd etilgan bo‘lsa-da, ijtimoiy natijadorlik indikatorlarining past holda qolishi moliyaviy ma’lumotning ustuvorligi, ammo natijaga yo‘naltirilgan moliyalashtirish tamoyillarining to‘liq amalga oshirilmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli budjet hisob va hisobot tizimini takomillashtirishda asosiy e’tibor raqamlashtirish emas, raqamlashtirish orqali xizmat samaradorligini baholashga qaratilishi zarur.

Tahlillardan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy ilmiy va amaliy jihatlarini umumlashtirilgan holda budjet hisobi va hisobotida ijtimoiy samaradorlikni aks ettiruvchi indikatorlarning yo‘qligi hisobotning funksional ahamiyatini cheklovchi omil sifatida

[92] Muallif tomonidan tadqiqot kuzatuvlari asosida shakllantirilgan

qarashimiz mumkin. Budjet jarayonlarining raqamlashuvi yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda, ammo, raqamli hisob va hisobot hali xanuz natijalarni baholash imkoniyatlarini to'liq bermayapti. Budjet hisobotlarining jamoatchilik nazorati va ochiq muhokamasi amaliyotda to'liq institutsionallashmagan. Xarajatlarni samaradorlik mezonlari asosida baholash davlat siyosatining asosiy qismiga aylanmagan.

Ushbu ilmiy xulosalardan kelib chiqib, budjet tizimida hisob va hisobotni takomillashtirish bo'yicha quyidagi uslubiy va amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Budjet hisobotining huquqiy asoslariga ijtimoiy natijadorlik indikatorlarini kiritish zarur. Davlat sektorida natijaga yo'naltirilgan moliyalashtirish tamoyillarini joriy etishni jadallashtirish zarur. Hisob siyosatida yagona uslubiy standartlarni shakllantirish va barqaror qo'llash. BHHSM indeksi buyicha infratuzilma, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tashkilotlari bo'yicha yillik baholash tizimini joriy etish zarur. Elektron budjet platformalarida KPI asosida xizmat samaradorligini hisoblash modulini kengaytirish maqsadga muvofiq. Davlat muassasalarida natija indikatorlari asosida xarajatlar tahlilini yo'lga qo'yish zarur.

Budjet hisobotlarini tayyorlashda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash mexanizmini shakllantirish maqsadga muvoffiq. Budjet tizimi hisobotlarining soddalashtirilgan "fuqaro uchun budjet" formatini ommalashtirish yanada kengaytirish zarur. Ommaviy axborot vositalarida hisobotlar bo'yicha onlayn muhokama va reyting tizimini joriy qilish. Budjet hisobi va hisobotini zamonaviylashtirishning asosiy tamoyili bo'lgan, moliyaviy ma'lumot + ijtimoiy natija = strategiyali davlat moliyasi formulasiga asoslanishi kerak. Shunda hisobot tizimi faqat xarajatlar hajmini emas, balki, davlat xizmatlari natijadorligini ham aks ettiruvchi strategik boshqaruv vositasiga aylanadi.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMIDA ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLARI VA XORIJ TAJRIBASI

M. A. Sharapova
«Moliya va moliyaviy texnologiyalar» kafedrasi dotsenti
Sh.S. Ruzimatova
TDIU Moliya fakulteti talabasi

Zamonaviy ichki audit - bu tashkiliy muassasalarning maqsadlariga erishishni ta'minlash, risklarni baholash, nazorat qilish va korporativ boshqaruv jarayonlarini baholash hamda rivojlantirishga qaratilgan mustaqil, xolis kafolatlovchi va maslahat beruvchi faoliyatdir. Ushbu yangi faoliyatlar xalqaro standartlar va rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasi asosida shakllanmoqda.

Xalqaro darajada ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat Xalqaro ichki auditorlar insititutti (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Global ichki audit standartlari

hisoblanadi. Ushbu standartlar 2024-yil yanvarida yangilangan bo'lib, 2025-yil 9-yanvarda to'liq kuchga kiradi. Yangi tuzilma 5 ta domenga bo'lingan [1].

- I domen: Ichki auditning maqsadi.
- II domen: Etika va professionallik.
- III domen: Ichki audit funksiyasini boshqarish.
- IV domen: Ichki audit xizmatlarini ko'rsatish.
- V domen: Ichki audit funksiyasini boshqarish.

Ushbu 5 ta domen 15 tamoyil va 52 aniq talabni o'z ichiga oladi. Ushbu standartlar mustaqillik, xolislik, maxfiylik, kasbiy mahorat va doimiy rivojlantirish kabi asosiy tamoyillarga asoslangan.

Xalqaro Standartashtirish Tashkiloti (ISO) tomonidan "Audit tizimlarini boshqarish bo'yicha yo'riqnoma" standarti tashkilotlarda ichki va tashqi auditni rejalashtirish, o'tkazish va hisobot berishning yagona metodologiyasi tavsiya etilgan[2]. ISO mahsulotlar, xizmatlar va tizimlar sifatini, maxfiyligini hamda samaradorligini ta'minlash uchun xalqaro standartlarni ishlab chiqarish va nashr etuvchi mustaqil, nodavlat tashkiloti bo'lib, 1947-yilda tashkil etilgan va 160 dan ortiq davlatning standartlashtirish tashkilotlarini birlashtiradi.

Dunyo mamlakatlarining oliy audit organlarini birlashtiruvchi INTOSAI (International Organization of Supreme Audit Institutions) tomonidan esa audit standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, muntazam ravishda malakatlarning oliy nazorat organlari rahbarlari tomonidan tajriba almashinadi. Davlat sektorida INTOSAI standartlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular davlat moliyasini auditida shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan [3].

Har bir mamlakatda davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish maqsadida ichki audit xizmatlari faoliyati tashkil etilgan va dunyoning yetakchi mamlakatlarida bu borada o'ziga xos yondashuvlar mavjud. Quyida 5 ta davlatning ichki audit tizimlarining qiyosiy tahlilini ko 'rib chiqamiz.

1-jadval

Yetakchi mamlakatlarda ichki audit tizimining asosiy xususiyatlari

Mamlakat	Asosiy standart	Mustaqillik darajasi	Texnalogik darajasi	O'ziga xos xususiyati
AQSh	Sarbanes-Oxley Act	Juda yuqori (to'g'ridan-to'g'ri direktorlar kengashiga bo'ysunadi)	Yuqori(IT-audit, data-analitika kengqo'llaniladi)	SOX 404 – majburiy ichki nazorat sertifikati; bosh direktor shaxsan javobgar)
Buyuk Britaniya	UK Corporate Governance Code 2024	Yuqori (audit qo'mitasi mustaqil, tashqi baholash	O'rta-yuqori	"Comply or explain" tamoyili; kichik kompaniyalar

		majburiy)		uchun moslashuvchan
Yaponiya	IIAJapan GTAG	Yuqori (korporativ boshqaruv kodiga asoslangan)	Juda yuqori (sun'iyintellekt, real vaqt monitoring)	IT-audit bo'yicha dunyoda yetakchi; uzluksiz audit amaliyoti
Germaniya	German Corporate Governance Code (DCGK)	O'rta-yuqori (qo'shimcha nazorat kendashi mavjud)	Yuqori (ayniqsa moliya va sug'urta sohasida)	Ikki pallali boshqaruvtizimi; risk-menejment bilan integratsiya
MDH (Qirg'iziston, Qozog'iston)	Qiyosiytahlil maqolasi	O'rta (davlat korxonalarida mustaqillik cheklangan)	O'rta (raqamlashtirish bosqichida)	MDH modeli-davlat tomonidan kuchli tartibga solinadi; ichki audit xizmati majburiy

2002-yil 30-iyulda AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan Sarbanes-Oxley Act (SOX) qonuni muhim federal qonun bo'lib, korporativ firibgarliklarga qarshi kurashish, moliyaviy hisobotlarning aniqligini oshirish va investorlarni himoya qilishga qaratilgan. Qonunning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni kuchaytirish, ichki nazoratni joriy etish, auditorlar mustaqilligini o'rnatish va firibgarliklar uchun jazolarni kuchaytirish [4].

Yaponiya esa IT-audit va uzluksiz monitoring bo'yicha dunyoda yetakchi bo'lib, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar asosida real vaqt rejimida tranzaksiyalarni tekshirish faoliyati keng joriy etilgan.

Buyuk Britaniyada Moliyaviy hisobotlar kengashi (FRC) tomonidan 2024-yil 22-yanvarda yangilangan Korporativ boshqaruv kodeksi asosan kompaniyalarning ichki nazorat tizimini mustahkamlashga qaratilgan [5].

Germaniyada tashkil etilgan ikki pallali boshqaruv tizimi ichki auditning mustaqilligini oshiradi, ayniqsa bank va sug'urta sohasida Basel III va Solvency II talablari auditni risklarni boshqarish bilan integratsiyalaydi.

MDH davlatlaridan Qirg'iziston va Qozog'istonda ichki auditning me'yoriy-huquqiy bazasi yaratilgan bo'lsa ham, mustaqillik darajasi va raqamlashtirish g'arb mamlakatlariga nisbatan pastligicha qolmoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda audit tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 10-iyuldagi farmoniga muvofiq, oliy tashqi audit organi Hisob palatasining ish uslubi bir muncha o'zgardi. Yangi joriy etilgan moliyaviy, muvofiqlik, samaradorlik va strategik auditlari orqali 2025-yilning 6 oyida 5 trillion 600 milliard

so’m samarasiz byudjet xarajatlari qisqartirildi va byudjetga 5 trillion so’m qo’shimcha tushum imkoniyati aniqlangan.O’zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari davlat nazorati organlari faoliyatiga ham tatbiq etilmoqda. Xususan, samarali faoliyat ko’rsatayotgan “Masofaviy audit” axborot tizimi yordamida bugungi kunga qadar 4 trillion so’m miqdoridagi masofaviy xatoliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish ta’minlandi [6].

Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazorati va auditining nazariy-metodologik asoslari, jumladan, sun'iy intellekt va "Elektron hukumat" platformasining nazorat jarayonlariga integratsiyasi nuqtai nazaridan chuqurlashtirildi; O‘zbekiston sharoitida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning davlat moliyaviy nazorati samaradorligiga ta'siri aniqlandi; xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha moslashuvchan va innovatsion takliflar ishlab chiqildi; moliyaviy nazoratda raqamli transformatsiyaning mavjud muammolari (kadrlar malakasi, axborot xavfsizligi) tizimlashtirildi va ularni hal etish yo‘llari asoslandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O‘zbekiston Respublikasi davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini raqamlashtirish va takomillashtirishda amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, "Elektron hukumat" platformasini yanada rivojlantirish va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini

oshirish, korrupsiya va byurokratiyani kamaytirish shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish [5] bo‘yicha aniq yo‘nalishlar taklif etiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari davlat moliyaviy nazorati sohasidagi qonunchilik bazasini modernizatsiya qilish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, "Smart City" va "Digital Tashkent" kabi loyihalarni amalga oshirishda [3] nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqot raqamlashtirish sharoitida davlat moliyaviy nazorati va auditining nazariy-metodologik asoslarini chuqur tahlil qildi. Maqolada sun'iy intellekt va "Elektron hukumat" platformasi kabi raqamli texnologiyalarning davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyani kamaytirishdagi hal qiluvchi roli ko'rsatildi. Shuningdek, zamonaviy raqamli vositalar va usullarning nazorat jarayonlariga integratsiyasi muhimligi ta'kidlandi. Raqamli transformatsiya davrida kadrlar malakasini oshirish, axborot xavfsizligini ta'minlash va qonunchilik bazasini takomillashtirish zaruriyati asoslandi. Xalqaro tajribalar asosida O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

БУХГАЛТЕРИЯ УСУЛИНИНГ ЭЛЕМЕНТИ СИФАТИДА ТАЙЁР МАҲСУЛОТ ТАННАРХИНИ ҲИСОБЛАШ

Маматов Хабибулла Маматович
ТДИУ “Аудит” кафедраси катта ўқитувчиси

Корхоналар ва бизнес-жараёнлар маблағларини баҳолаш учун асос ҳақиқий таннархдир. Ҳисоблаш унинг қийматини аниқлаш учун ишлатилади.

Ҳисоблаш-бу моддий бойликларни сотиб олиш, ишлаб чиқариш, уларни сотиш харажатларини, шунингдек кенгайтирилган такрор ишлаб чиқариш жараёнининг алоҳида босқичларини ўлчаш усули.

Кўпинча таннахни ҳисоблаш деганда, - маҳсулот (ишлар, хизматлар) таннархини уни ишлаб чиқариш таннархи ва ишлаб чиқарилган маҳсулотлар сони тўғрисидаги маълумотлар асосида ҳисоблаш усули тушунилади. Бу харажатлар, -бир бирлик маҳсулот (ишлар ва хизматлар) ни ишлаб чиқариш билан боғлиқ харажатлар йиғиндисидир.

Ишлаб чиқариш ва ноишлаб чиқариш харажатларининг турлари:

1) дастлабки маълумотларга қараб:

а) режалаштирилган таннарх (тахмин қилинган, прогноз қилинган, норматив) харажатлар;

б) ҳақиқий (бухгалтерия ҳисоби ва ҳособоти асосида) таннархи.

2) харажатлар таркибига кўра:

а) ишлаб чиқариш-ишлаб чиқариш жараёнида шаклланади;

б) жами харажатлар амалга ошириш жараёнида шаклланади ва ишлаб чиқариш харажатлари, тақсимланмаган умумишлаб чиқариш ва ёрдамчи ишлаб чиқариш харажатлар, меъёрдан нормадан ортиқча ишлаб чиқариш харажатлари, бошқарув харажатларидан ва сотиш харажатларидан иборатдир.

Ишлаб чиқариш таннархига киритилган асосий харажатлар элементлари таркибига қуйидаги харажатларни киритиш мумкин:

- моддий харажатлар;
-меҳнат ҳақи ва ижтимоий солиқ бўйича харажатлари;
- асосий воситалар ва номоддий активларнинг амортизацияси харажатлари;
- бошқа тўғридан-тўғри ишлаб чиқариш харажатлари;
- тақсимланган умумишлаб чиқариш ва ёрдамчи ишлаб чиқариш харажатлари.

Таннархга киритиладиган харажатларнинг аниқ таркиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 05.02.1999 йилдаги 54-сонли Қарори, "Маҳсулот (иш, хизмат) ишлаб чиқариш ва сотиш харажатлари таркиби ва молиявий натижалар бериш тартиби тўғрисида"ги Низом, Ўзбекистон Республикаси солиқ кодексига мувофиқ тадбиркорлик субектларининг даромадлари ва харажатларини ҳисобга олишнинг ягона методологиясини таъминлаш билан тартибга солинади.

Масалан, компания шкафларни ишлаб чиқариш жараёнини бошлади. Бир ой ичида ишлаб чиқариш тўлиқ якунланди. Ҳужжатларга кўра, моддий харажатлар 200 000 000 сўмни, меҳнат ҳақи харажатлари 100 000 000 сўмни ва 12 000 000 сўмни ижтимоий солиқни, 150 000 000 сўмни ишлаб чиқариш билан боғлиқ умумишлаб чиқариш ва ёрдамчи ишлаб чиқариш харажатларини ташкил этгани маълум. Шундай қилиб, шкафлар ишлаб чиқаришнинг умумий таннархини қиймати 462 000 000 сўмни ташкил этди.

Харажатларнинг барча турлари харажатларни елементлар, турлар ва даврлар бўйича гуруҳлаш усули сифатида ҳисоблаш ёрдамида аниқланади.

Таннархни аниқлашда калькуляция ҳисоб-китоблари ҳужжат шаклида тузилади ва белгиланган харажат моддалари бўйича ҳисоб-китоблар, калькуляция,- деб аталади.

Шундай қилиб, ҳисоблаш харажатларни гуруҳлаш ва ишлаб чиқарилган маҳсулотлар, бажарилган ишлар ва кўрсатилган хизматлар таннархини аниқлаш усули сифатида тушунилиши керак. Шунинг учун таннархни калькуляциялашни ҳисоблаш ишлаб чиқаришдаги хўжалик жараёни натижаларини баҳолаш жараёнидир.

Маҳсулот таннархини ҳисоблаш объектлари ишлаб чиқариш харажатлари бўлиб, улар харажатлар кўрсаткичлари - таннархни шакллантириш учун маълум мезонларга ва белгиларига мувофиқ гуруҳланади.

Калькуляция бухгалтерия ҳисобининг элементидир. Бу бухгалтерия ҳисобининг счётлари билан чамбарчас боғлиқ, чунки Бу бухгалтерия ҳисобининг счётлари ёрдамида гуруҳланган ҳолда, харажат элементлари бўйича харажатларни бу тегишли счетларда йиғилади, аниқланади, ҳамда керакли маълумотларни аниқлаш имкониятига эга бўлинади. Бундай харажат счетларида маълумотлар ҳисоблаш бўйича белгиланган тартиб ва талабларга мувофиқ акс эттирилади.

Шунинг учун, бу счетларни синфларга гуруҳлашда калькуляцион счетлар деб, юритилади.

Турли мезон ва белгиларига кўра асосланган классификацияси бўйича калькуляциялашнинг бир нечта таснифлаш турлари мавжуд:

- тузишнинг мақсади ва вақтига кўра-дастлабки (лойиҳалаш, режалаштирилган, тахмин қилинган) ва ижро етувчи (ҳисоб, ҳисобот, меъёрий норматив ҳисобот);

- харажатларни қамров бўйича ёки жойлашуви бўйича-ишлаб чиқариш таннархи, тўлиқ ишлаб чиқариш таннархи, ички хўжалик ичидаги таннархи, ўзгарувчан харажатлар бўйича таннархи, технологик жараёнлар бўйича таннархи;

- маҳсулот ишлаб чиқариш тавсифи характерига кўра ёппасига ишлаб маҳсулот ишлаб чиқариш, (даврий) индивидуал якка ва оралик маҳсулот ишлаб чиқариш таннархи;

- калькуляция объекти хусусиятларига кўрағ умумий таннарх, параметрларига кўра таннарх;

- харажат маълумотларининг келиб чиқиш манбасига кўра – техник таннарх, режа таннарх, норматив таннарх, ҳақийқий таннарх;

- калькуляциялаш усулларига кўра- оддий, жараёнли, буюртмали, режа таннархи, норматив ва ҳақийқий таннархни ҳисоблаш усуллари ва ҳаказо.

Корхонада қабул қилинган тизимга ва ҳисоб сиёсатига кўра, шунингдек мавжуд бошқарув тизимининг ҳҳтиёжларига қараб ҳар хил турдаги калькуляциялаш усуллари ва ҳисоб-китоблар тузилади ва қўлланилади.

Харажатларни ҳисоблаш жараёнининг иккинчи таркибий қисми бу калкуляциялашда харажатларини ҳисобга олиш, ишончли ва аниқ калькуляциялашни ҳисоблаш учун, ишлаб чиқариш харажатларини аналитик ҳисобга олиш тизими бўлиб, унинг асосий мақсади тўғри харажатларни калькуляция ҳисоблаш объектларида ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш ва эгри харажатларни калькуляция ҳисоблаш объектларида ишлаб чиқариш харажатларини ҳисобга олиш бўйича тўлиқ ажратиб ҳисобга олишдир.

Бухгалтерия тизимида калькуляция ҳисоб китоблари у ёки бу калькуляцияни ҳисоблаш усулини қўллаш орқали амалга оширилади. Калькуляцияни ҳисоблаш усули-бу ишлаб чиқариш харажатларини аналитик ҳисобга олиш усуллари ва калькуляциялашни ҳисоблаш объектлари бўйича таннархни ҳисоблаш усулидир.

Калькуляциялаш ҳисоби методологияси ва калькуляциялаш усулларидан фарқланади.

Кўп ҳолларда адабиётларда оддий, буюртмали, жараёнли ва норматив меъёрий таннархни ҳисоблаш усуллари кўп учрайди.

Таннахни ҳисоблашнинг оддий усул моно-ишлаб чиқариш (электр энергиясини ишлаб чиқариш, нефт, кўмир қазиб олиш ва бошқалар)да қўлланилади Бу ерда барча харажатлар ишлаб чиқарилган маҳсулот билан бевосита боғлиқ. Маҳсулот бирлигининг таннархи ишлаб чиқарилган маҳсулотлар сонига таннархни калькуляциялаш харажатларини тақсимлаш йўли билан ҳисобланади.

Буюртма бўйича, буюртмали таанархни ҳисоблаш усули билан калькуляциялаш объекти бўйича, алоҳида индивидуал буюртма, алоҳида шартнома ёки маҳсулот партияси бўйича ҳисоблаш усулидир. Ушбу усул индивидиуал ва кичик серияли ишлаб чиқаришда қўлланилади. Маҳсулот бирликларининг таннархи барча харажатларни буюртма асосида тайёрланган маҳсулотлар сонига бўлиш йўли билан аниқланади.

Жараёнга асосланган усул-бу меҳнат маҳсулига олиб келадиган технологик операциялар тўплами. У кетма - кет ишлаб чиқаришда (бир технологик жараён бошқасига эргашганда) қўлланилади, бу ерда у алоҳида қисмларга бўлинади-жараёнлар (ўзгаришлар) ва харажатлар уларнинг ҳар бири учун алоҳида ҳисобланади. Шу билан бирга, ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг ҳар бир цех (устахонаси) учун харажатлар ҳисобга олинади. Улар бир ҳил, оммавий ишлаб чиқариладиган маҳсулотларга эга бўлган соҳаларда қўлланилади. Ушбу усулдан фойдаланганда харажатларни ҳисобга олиш жараёнлар (чегара) бўйича маҳсулот турлари ёки гуруҳлари бўйича амалга оширилади.

Норматив меъёрий усул ишлаб чиқарилган маҳсулотнинг ҳақиқий таннархини норматив меъёрларга мувофиқ харажатларнинг алгебраик йиғиндиси сифатида, меъёрлардан четга чиқиш ва меъёрларнинг ўзгаришини аниқлашдан иборат.

Бошқа томондан, бухгалтерия ҳисоб-китоблари тегишли воситалар ва жараёнларни баҳолаш варианти сифатида кўриб чиқилади. Бухгалтерия ҳисобида харажатларни ўлчаш асосан ҳисоблашга асосланган. Бу қилинган харажатлар ва олинган натижаларни таққослаш учун муҳим асос бўлган ҳисоблаш ҳисоб-китоблари. Бироқ, уларни амалга ошириш фақат иқтисодий ва ишлаб чиқариш фаолиятини амалга ошириш учун сарфланган ресурсларнинг харажатлар сметаси қўлланилган тақдирдагина мумкин бўлади.

Шундай қилиб, калькуляциялашда пул баҳосини асослашнинг зарурий шартидир ва пул баҳоси ҳисоблашнинг ажралмас қисмидир, бу аслида ҳисоб-китобларнинг бажарилишини таъминлайди. Фақат пул баҳоси ресурслар ва хизматларнинг турли харажатларини ҳисобга олиш ва умумлаштириш имконини

беради. Баҳолаш ва ҳисоблаш усуллари бир-бири билан чамбарчас боғлиқ, шунинг учун уларнинг уйғун комбинацияси ва изчиллиги иқтисодий активлар ва жараёнларнинг мавжудлиги ва ҳаракатини пул кўринишида акс эттиришга имкон беради.

Шундай қилиб, корхоналарнинг маҳсулотлари, ишлари ва хизматларининг ҳақиқий таннархи фақат ҳисобот даври тўлиқ тугагандан сўнг аниқланиши мумкин. Бу тайёр маҳсулот ҳаракатини акс еттириш учун жорий бухгалтерия ҳисобида режалаштирилган харажатлардан фойдаланишни тушунтиради.

Калкуляциялашни ҳисоблашнинг амалий аҳамиятини ошириш ва ҳисоблаш ҳисоблаш техникасини оқилона соддалаштириш учун ҳисоблаш объектлари ва ҳисоблаш бирликларини тўғри аниқлаш муҳимдир.

Ҳисоблаш объекти деганда бир ҳил маҳсулотларнинг алоҳида тури ёки гуруҳи, уларни ишлаб чиқариш таннархи ҳисобланадиган маълум бир иш ёки хизмат тури тушунилиши керак.

Ушбу калькуляция объектнинг ўлчовлари бўлган тегишли ҳисоблаш бирликлари калькуляция объектлари билан узвий боғлиқдир. Ишларни калькуляциялаш амалиётида натура ўлчов бирликлар (метр, бирлик, килограмм ва бошқалар.), шартли табиий ва шартли бирликлар ишлатилади.

Маҳсулот таннархини калькуляциялаш ишларнинг бутун мажмуасидан иборат бўлиб, унинг бажарилиши калькуляцияни ҳисоблашнинг асосий мазмуни ҳисобланади.

Биринчидан, бу ишлаб чиқариш таннархига киритилган харажатлар оралиғини аниқлаш ва ишлаб чиқариш ва умумий харажатлар ўртасидаги аниқ фарқ.;

иккинчидан, ишлаб чиқариш таннархини аниқлаш мақсадида харажатларни таснифлаш ва уларни гуруҳлашнинг иқтисодий асосланиши;

учинчидан, ҳар бир харажат елементини баҳолаш усулларини ишлаб чиқиш ва асослаш, уларни олинган маҳсулотлар ва тугалланмаган маҳсулотлар ўртасида ажратиш, уларни олинган маҳсулотлар ва тугалланмаган маҳсулотлар ўртасида тақсимлаш методологияси, билвосита харажатларни тақсимлаш методологияси, ҳисобланган маҳсулотлар ҳажмини, унинг объектлари ва объектларини аниқлаш. ҳисоблаш бирликлари, ҳисоблаш частотасини (вақтини) ўрнатиш;

ва ниҳоят, олинган барча маҳсулотлар ва унинг бирликларининг нархини аниқлаш, шу жумладан харажатлар варақаларини (ҳисоб-китобларни) тайёрлаш, тегишли маҳсулот турлари ўртасида харажатларни тақсимлаш, шунингдек ён маҳсулотларнинг оқилона баҳоларини аниклаш зарур.

Белгиланган иш босқичлари (турлари) нинг ўзига хос мазмуни ва кетма-кетлиги кўп жиҳатдан ушбу ишлаб чиқариш технологияси ва ташкил этилишига боғлиқ бўлиб, саноат қоидалари билан белгиланади.

Демак, шундай қилиб, маҳсулот таннархини пасайтириш ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишнинг муҳим шартидир. Шунинг учун харажатларни тўғри меъёрлаш, прогрессив меъёрлар ва қоидаларни қўллаш, амалдаги қоидаларга риоя этилишини назорат қилиш ва калькуляцилашни ҳисоблаш усулларини такомиллаштириш харажатларни бошқаришнинг муҳим омиллари ҳисобланади.

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY FIRIBGARLIKLARNI ANIQLASH TIZIMINI DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA QO'LLASH: MASHINAVIY O'RGANISH MODELLARI ORQALI AUDIT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xamroqulov Ixtiyor Baxtiyrovich
Farg'ona davlat texnika universiteti katta o`qituvchisi, Phd
Jalolov Muhammadrasul Nasrullo o`g`li
Farg'ona davlat texnika universiteti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda davlat moliyaviy nazorati tizimida yuzaga kelayotgan moliyaviy firibgarliklarni aniqlash muammolari chuqur tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etishda sun'iy intellektga asoslangan mashinaviy o'rganish modellari imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi. An'anaviy audit usullarining cheklanganligi, katta hajmdagi ma'lumotlarni tezkor va samarali tahlil qilishdagi muammolari hamda inson omiliga bog'liqlik darajasi yuqoriligi sharoitida zamonaviy raqamli yechimlarga ehtiyoj ortib borayotgani ko'rsatib beriladi. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar, xususan rivojlangan davlatlar moliyaviy nazorat tizimida qo'llanilayotgan algoritmik yondashuvlar, anomaliyalarni aniqlash texnologiyalari va prognozlash modellari o'rganilib, ularning samaradorligi statistik dalillar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, mashinaviy o'rganish, moliyaviy firibgarlik, davlat moliyaviy nazorati, audit samaradorligi, anomaliyalarni aniqlash, katta ma'lumotlar.

Zamonaviy global iqtisodiy tizimda davlat moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish, ularning maqsadli sarflanishini ta'minlash hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy firibgarliklar va noqonuniy moliyaviy operatsiyalar davlat byudjeti barqarorligiga jiddiy xavf tug'diradi. Xalqaro tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha davlat sektorida aniqlanmagan moliyaviy yo'qotishlar umumiy byudjet xarajatlarining o'rtacha 5 foizigacha yetadi, ayrim rivojlanayotgan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 10 foizdan oshishi kuzatilmoqda. Ushbu holat davlat moliyaviy nazorati tizimida yangi, samarali va innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruratini yuzaga keltiradi.

An’anaviy audit tizimlari asosan retrospektiv tahlilga asoslangan bo‘lib, ular moliyaviy qonunbuzarliklarni sodir bo‘lgandan keyin aniqlashga qaratilgan. Bunday yondashuv esa tezkor qaror qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi hamda firibgarliklarning oldini olish emas, balki ularni qayd etish bilan chegaralanadi. Shu sababli, real vaqt rejimida ishlaydigan, katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlay oladigan va yashirin qonuniyatlarni aniqlash imkonini beruvchi texnologiyalarni qo‘llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu jihatdan sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish modellari davlat moliyaviy nazoratida tub burilish yasashi mumkin bo‘lgan vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida moliyaviy operatsiyalarni avtomatik tahlil qilish, odatiy bo‘lmagan harakatlarni aniqlash hamda firibgarlik ehtimolini prognozlash imkoniyati mavjud. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda joriy etilgan tizimlar orqali shubhali tranzaksiyalarni aniqlash aniqligi 85–95 foizgacha oshgani qayd etilgan. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi, audit jarayonini tezlashtiradi va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Biroq, bunday tizimlarni joriy etishda ma’lumotlar sifati, infratuzilma yetishmovchiligi, malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolar ham mavjud bo‘lib, ular chuqur ilmiy tahlilni talab etadi.

O‘zbekiston sharoitida davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan, sun’iy intellekt asosidagi audit tizimlarining amaliy qo‘llanilishi hali yetarli darajada rivojlanmagan. Ushbu tadqiqotda aynan mazkur muammo markazga qo‘yilib, mavjud tizimning zaif jihatlari aniqlanadi hamda mashinaviy o‘rganish modellari asosida samarali yechimlar ishlab chiqishga e’tibor qaratiladi.

Davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy firibgarliklarni aniqlash masalasi ko‘p jihatdan mavjud audit mexanizmlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Amaldagi tizimlar ko‘pincha hujjatli tekshiruvlar, tanlab olingan operatsiyalarni tahlil qilish va inson tajribasiga asoslangan qarorlar bilan chegaralanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, moliyaviy nazoratda sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tish uchun ma’lumotlarga asoslangan, avtomatlashtirilgan va o‘z-o‘zini o‘rganuvchi tizimlarni joriy etish zarurati yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xalqaro ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mashinaviy o‘rganish modellari moliyaviy firibgarliklarni aniqlashda an’anaviy statistik usullarga nisbatan ancha yuqori natija beradi. Xususan, klassifikatsiya algoritmlari (logistik regressiya, qaror daraxtlari, tasodifiy o‘rmonlar), klasterlash usullari hamda chuqur o‘rganish (deep learning) modellaridan foydalanish orqali tranzaksiyalar orasidagi yashirin bog‘liqliklar aniqlanadi. Amaliy tajribalarda tasodifiy o‘rmon (Random Forest) va gradient boosting algoritmlari yordamida firibgarliklarni aniqlash aniqligi o‘rtacha 90 foizdan yuqori darajaga yetgani kuzatilgan. Shu bilan birga, neyron tarmoqlar asosida ishlab chiqilgan modellar

murakkab va ko‘p qatlamli firibgarlik sxemalarini aniqlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan.

Moliyaviy firibgarliklarni aniqlash jarayonida eng muhim bosqichlardan biri bu ma’lumotlarni tayyorlash va ularning sifatini ta’minlash hisoblanadi. Ko‘plab davlatlarda muammo aynan ma’lumotlar yetarli darajada strukturalashmaganligi, turli tizimlarda saqlanishi va yagona platformaga integratsiya qilinmaganligi bilan bog‘liq. Bunday sharoitda mashinaviy o‘rganish modellari to‘liq natija bermaydi. Shu sababli, samarali AI tizimini yaratish uchun avvalo yagona ma’lumotlar ombori (data warehouse) va katta ma’lumotlar (big data) infratuzilmasini shakllantirish zarur.

Amaliy jihatdan qaralganda, anomaliyalarni aniqlash (anomaly detection) algoritmlari davlat moliyaviy nazoratida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv orqali odatiy moliyaviy xatti-harakatlardan keskin farq qiluvchi operatsiyalar avtomatik ravishda aniqlanadi. Masalan, qisqa vaqt ichida katta miqdordagi mablag‘larning o‘tkazilishi, bir xil hisobdan takroriy tranzaksiyalar amalga oshirilishi yoki byudjet mablag‘larining noodatiy yo‘nalishlarda sarflanishi tizim tomonidan signal sifatida qayd etiladi. Xalqaro amaliyotda bunday tizimlar yordamida firibgarliklarni aniqlash tezligi bir necha barobar oshgani va zarar miqdori sezilarli darajada kamaygani aniqlangan.

Mazkur tadqiqotda davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy firibgarliklarni aniqlash samaradorligini oshirish masalasi kompleks yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg‘un holda qo‘llanilib, muammoning mohiyatini chuqur anglash hamda amaliy yechimlar ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. Ilmiy tahlilning dastlabki bosqichida xalqaro ilmiy adabiyotlar, nufuzli jurnallarda chop etilgan maqolalar va rivojlangan davlatlar tajribasi tizimli ravishda o‘rganildi. Ushbu bosqichda sun’iy intellekt, mashinaviy o‘rganish va moliyaviy audit sohalaridagi mavjud konseptual yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, ularning ustun va zaif jihatlari aniqlab olindi.

Empirik tahlil doirasida ma’lumotlarga asoslangan yondashuv asosiy o‘rin egalladi. Moliyaviy operatsiyalar to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plami (simulyatsiya qilingan va ochiq manbalardan olingan datasetlar) ustida tajriba sinovlari o‘tkazildi. Ma’lumotlar dastlabki qayta ishlash bosqichidan o‘tkazilib, ularning tozaligi, izchilligi va tahlil uchun yaroqliligi ta’minlandi. Keyingi bosqichda ushbu ma’lumotlar asosida mashinaviy o‘rganish modellari qurildi va sinovdan o‘tkazildi. Xususan, klassifikatsiya masalalarini hal etishda logistik regressiya, qaror daraxtlari, tasodifiy o‘rmon (Random Forest) va gradient boosting algoritmlaridan foydalanildi.

Anomaliyalarni aniqlash metodlari tadqiqotning muhim qismi sifatida qo‘llanildi. Ushbu yondashuv orqali odatiy moliyaviy operatsiyalardan chetga chiqadigan holatlar avtomatik ravishda aniqlanib, ular firibgarlik ehtimoli yuqori bo‘lgan tranzaksiyalar sifatida baholandi. Bunda klasterlash algoritmlari, xususan K-means va izolyatsion o‘rmon (Isolation Forest) modellari qo‘llanildi. Model natijalari aniqlik, sezgirlik, aniqlik darajasi (precision) va F1-ko‘rsatkich kabi statistik mezonlar orqali baholandi. Tajribalar


natijasida ayrim modellarda firibgarliklarni aniqlash aniqligi 90 foizdan yuqori natijani ko‘rsatgani kuzatildi.

Tadqiqot davomida qiyosiy tahlil usuli orqali an’anaviy audit yondashuvlari va sun’iy intellektga asoslangan modellar samaradorligi solishtirildi. Ushbu solishtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, mashinaviy o‘rganish modellari katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida qayta ishlash va yashirin qonuniyatlarni aniqlash imkoniyati bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, iqtisodiy-statistik usullar yordamida modellarning barqarorligi va ishonchliligi baholandi.

Olingan natijalar asosida aniqlanishicha, anomaliyalarni aniqlash algoritmlaridan foydalanish moliyaviy nazorat tizimida sifat jihatidan yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Amaliy tajribalar davomida katta hajmdagi moliyaviy operatsiyalar ichidan odatiy bo‘lmagan tranzaksiyalarni ajratib olish jarayoni avtomatlashtirilgani sababli audit jarayonining tezligi sezilarli darajada oshdi. Statistik ko‘rsatkichlarga ko‘ra, avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida firibgarliklarni aniqlash vaqti o‘rtacha 60–70 foizga qisqargan. Shu bilan birga, noto‘g‘ri ijobiy holatlar (false positive) darajasi ayrim modellarda yuqori bo‘lib qolayotgani aniqlanib, bu muammo modellarning yanada takomillashtirilishini talab etadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatdiki, sun’iy intellektga asoslangan mashinaviy o‘rganish modellari davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy firibgarliklarni aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Empirik sinovlar davomida turli algoritmlar asosida yaratilgan modellar solishtirildi va ularning natijalari an’anaviy audit usullari bilan qiyoslandi. Tahlillar natijasida mashinaviy o‘rganish modellari orqali aniqlangan shubhali tranzaksiyalar ulushi an’anaviy usullarga nisbatan o‘rtacha 2–3 barobar yuqori bo‘lgani kuzatildi.

1-diagramma. O‘zbekistonda davlat moliyaviy nazoratida aniqlangan moliyaviy qonunbuzarliklar



Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish audit jarayonini faqat tezlashtiribgina qolmay, balki uning aniqligi va ishonchliligini ham oshiradi. Modellar yordamida risk darajasi yuqori bo‘lgan operatsiyalarni oldindan aniqlash imkoniyati yaratiladi, bu esa audit tizimini proaktiv shaklga o‘tkazadi. Biroq, mavjud muhokamalar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu yondashuvni to‘liq joriy etishda bir qator cheklovlar mavjud. Eng asosiy muammolardan biri bu ma’lumotlar sifati va ularning yetarli darajada integratsiyalashmaganligidir. Turli davlat organlari o‘rtasida ma’lumot almashinuvi mexanizmlarining sustligi modellar samaradorligini pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat sifatida kadrlar masalasi alohida e’tiborni tortadi. Sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlili sohasida yetarli bilim va ko‘nikmaga ega mutaxassislarning yetishmasligi ushbu texnologiyalarni keng joriy etishga to‘sqinlik qilmoqda. Shu bois, ta’lim tizimida zamonaviy IT va analitik kompetensiyalarni rivojlantirish, amaliy treninglar tashkil etish va xalqaro tajribani o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilishimiz mumkinki davlat moliyaviy nazoratida sun’iy intellektga asoslangan mashinaviy o‘rganish modellari qo‘llanilishi moliyaviy firibgarliklarni aniqlash samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. An’anaviy audit yondashuvlari bilan solishtirganda, algoritmik tahlil va avtomatlashtirilgan tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, yashirin qonuniyatlarni aniqlash hamda riskli operatsiyalarni oldindan prognozlash imkoniyatini

yaratadi. Bu esa audit jarayonini reaktiv shakldan proaktiv shaklga o‘tkazib, moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mashinaviy o‘rganish modellari, xususan, tasodifiy o‘rmon, gradient boosting va neyron tarmoqlar asosidagi yondashuvlar yuqori aniqlik darajasini ta’minlaydi hamda murakkab firibgarlik sxemalarini aniqlashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, anomaliyalarni aniqlash algoritmlarining joriy etilishi moliyaviy operatsiyalarni uzluksiz monitoring qilish imkonini berib, audit samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

FISKAL BOSHQARUV TIZIMI VA DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI RAQAMLASHTIRISH

Omonova Shohista Ikrom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetii tayanch doktoranti

Globallashuv va raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimlarining modernizatsiyasini taqozo etmoqda. Ayniqsa, davlat moliyaviy nazorati va fiskal siyosatni amalga oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish orqali budjet mablag‘larining harakati ustidan nazoratni kuchaytirish, soliqlarni yig‘ish jarayonini shaffoflashtirish hamda fiskal intizomni mustahkamlash imkoniyati kengayadi. OECD va IMF hisobotlariga ko‘ra raqamlashtirish fiskal shaffoflikni 20–30% gacha oshirish imkonini beradi hamda budjet ijrosini monitoring qilishni real vaqt rejimiga o‘tkazadi.

Fiskal tizimni raqamlashtirish - bu soliq ma’muriyatchiligi, budjet boshqaruvi va moliyaviy hisobotlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida integratsiyalash jarayonidir. Raqamlashtirish quyidagi natijalarga erishishga xizmat qiladi:

- soliq tushumlarini oshirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish;
- davlat xarajatlarini optimallashtirish;
- korrupsion omillarni kamaytirish;
- moliyaviy ma’lumotlarning shaffofligini ta’minlash;
- tezkor tahliliy qarorlar qabul qilish imkoniyatini kengaytirish.

Masalan, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikalari va integratsiyalashgan budjet platformalari fiskal nazoratning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Davlat moliyaviy nazorati - bu davlat budjeti va davlat moliyaviy resurslaridan maqsadli hamda samarali foydalanilishini ta’minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar majmuasidir. Mazkur nazorat tizimi quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- budjet daromadlarini shakllantirish jarayonini nazorat qilish;

- budjet xarajatlarining maqsadli sarflanishini monitoring qilish;
- davlat qarzi va fiskal majburiyatlar ustidan nazoratni amalga oshirish;
- moliyaviy intizomni ta’minlash va buzilishlarning oldini olish.

An’anaviy nazorat usullarida ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash jarayoni ko‘p vaqt talab qiladi. Raqamlashtirish esa ushbu jarayonlarni avtomatlashtirib, real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davlat moliyaviy nazoratini raqamlashtirish fiskal intizomni mustahkamlaydi va budjet resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Masalan, Volosovych va Baraniuk davlat moliyaviy nazoratida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish korrupsion risklarni sezilarli darajada kamaytirishini ta’kidlaydi.[128]

Bundan tashqari, Tereshchenko va Kruhlov raqamli audit tizimlari davlat moliyaviy boshqaruvida hisobdorlikni oshirishda muhim omil ekanligini qayd etadi. Ularning tadqiqotiga ko‘ra, raqamlashtirilgan audit tizimlari audit xarajatlarini 25% gacha qisqartiradi.[129]

IT-audit davlat sektorida axborot tizimlarining ishonchliligini baholash, fiskal ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va budjet jarayonlarini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

Umbet va boshqalar tadqiqotiga ko‘ra, IT-audit tizimlari joriy etilgan davlatlarda soliq tushumlari o‘rtacha 10–15% ga oshgan.[130] Bu esa fiskal siyosat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Demianyshyna esa fiskal nazoratda AI va blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish soliq auditi jarayonlarini avtomatlashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishini ta’kidlaydi.[131]

Fiskal siyosatni yuritishda sun’iy intellekt quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-fiskal risklarni prognozlash;

-budjet defitsitini modellashtirish;

-soliq tushumlarini bashorat qilish;

-davlat xarajatlarini optimallashtirish;

Magdy va boshqalar SI asosidagi fiskal risk modellarini ishlab chiqib, OECD mamlakatlarida fiskal qarorlar aniqligi oshganini aniqlagan.[132]

Yavuz va O‘zgul tadqiqotiga ko‘ra, sun’iy intellektdan foydalanish davlat budjeti rejalashtirish jarayonida samaradorlikni 18% ga oshirgan.[133]

---

[128] Volosovych, S., & Baraniuk, Y. (2019). State financial control in terms of digitalization. Baltic Journal.
[129] Tereshchenko, D., & Kruhlov, V. (2024). Digitalization of public finance auditing.
[130] Umbet, M., Askarov, D., & Rudžionienė, K. (2025). Evaluating IT audit systems
[131] Demianyshyna, O. (2026). Digitalisation of tax audits.
[132] Magdy, M., Hamad, S., & Elfiky, N. (2025). AI-driven fiscal risk modeling.
133 Yavuz, E., & Özgül, H. (2025). AI in public budget processes.

IMF ma’lumotlariga ko‘ra:

-raqamlashtirilgan fiskal boshqaruv tizimlari davlat daromadlarini o‘rtacha 2–4% ga oshiradi;

-SI asosidagi soliq nazorati yashirin iqtisodiyot ulushini 10–15% ga kamaytiradi;

-raqamli audit joriy etilgan mamlakatlarda budjet xarajatlarining samarasiz sarfi 20% ga kamaygan.

OECD ma’lumotlariga ko‘ra:

-2024-yilda 70% davlatlar fiskal boshqaruvda SI elementlaridan foydalanmoqda;

- 60% davlatlarda IT-audit fiskal nazorat tizimiga integratsiya qilingan;

- real vaqt fiskal monitoring tizimlari 45% davlatlarda joriy etilgan.

Bu ko‘rsatkichlar fiskal siyosat samaradorligini oshirishda raqamli audit vositalari muhimligini tasdiqlaydi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat moliyaviy nazoratini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bunda:

- ma’lumotlar bazalarining integratsiyasi ta’minlanadi;
- real vaqt rejimida monitoring tizimi shakllanadi;
- risklarni tahlil qilish va prognozlash imkoniyati paydo bo‘ladi;
- audit jarayonlari avtomatlashtiriladi.

Natijada nazorat tizimi reaktiv emas, balki proaktiv xarakterga ega bo‘lib, moliyaviy buzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Davlat moliyaviy nazorati va ichki audit tizimlarida raqamlashtirish, IT-audit va sun’iy intellekt fiskal siyosat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar audit jarayonlarini avtomatlashtirish, fiskal risklarni kamaytirish va budjet resurslaridan samarali foydalanishni ta’minlaydi. Shu bois davlat moliyaviy nazoratini modernizatsiya qilishda SI va IT-auditni keng joriy etish zarur.

ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОГО ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ И ВНУТРЕННЕГО АУДИТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ВНЕДРЕНИЕ ИТ-АУДИТА И ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Исмоилжонов Восижон Жамшид угли

Студент 3-курса, факультета «Управление в производстве», Ферганского государственного технического университета

Ахунова Шохистахон Номанжановна

к.э.н., доцент кафедры «Экономика», ФГТУ

Аннотация. В данной статье исследуются процессы цифровой трансформации государственного финансового контроля (ГФК) и внутреннего аудита в Узбекистане в контексте стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030».

Анализируются механизмы перехода от ретроспективного контроля к непрерывному мониторингу на базе ИТ-аудита и искусственного интеллекта. Рассматривается роль интеграции систем «Государственный аудит» и «UzASBO» в минимизации коррупционных рисков. На основе математических моделей логистической регрессии предложены подходы к предиктивному анализу финансовых нарушений.

Ключевые слова: Внутренний аудит, ГФК, Искусственный интеллект, ИТ-аудит, Непрерывный мониторинг, Риск-ориентированный подход, Узбекистан, Цифровая трансформация, UzASBO.

Современный этап социально-экономического развития Республики Узбекистан характеризуется беспрецедентными масштабами цифровизации всех сфер государственной и общественной жизни. В условиях реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» вопросы модернизации системы государственного финансового контроля (ГФК) и внутреннего аудита выходят на передний план, становясь залогом прозрачности бюджетного процесса и эффективности государственного управления.[1] Традиционные подходы к аудиту, опирающиеся на ретроспективный анализ и выборочные проверки, в условиях экспоненциального роста объемов цифровых данных теряют свою актуальность, уступая место высокотехнологичным решениям на базе ИТ-аудита и искусственного интеллекта (ИИ).

Актуальность данного исследования обусловлена необходимостью теоретического осмысления и практической разработки механизмов перехода от «бумажного» контроля к непрерывному цифровому мониторингу. Государственный финансовый контроль в Узбекистане сегодня сталкивается с вызовами, требующими не только автоматизации рутинных процессов, но и изменения самой парадигмы надзорной деятельности. Внедрение программных комплексов, таких как «Государственный аудит» и интеграция с системой «UzASBO», создает технологический базис для реализации концепции «умного аудита».[3]

Целью настоящей статьи является комплексный анализ процессов цифровизации ГФК и внутреннего аудита в Узбекистане, оценка эффективности внедрения ИТ-аудита и определение перспектив использования алгоритмов искусственного интеллекта для выявления финансовых нарушений и коррупционных рисков. В рамках исследования рассматриваются институциональные преобразования, нормативно-правовое регулирование и практические кейсы внедрения цифровых инструментов в деятельность контролирующих органов республики.

Особое внимание уделяется стратегическим ориентирам, заданным Указом Президента Республики Узбекистан № УП-6079, который определил приоритеты

цифровой трансформации на десятилетие вперед.[1] В условиях, когда доля цифровой экономики в ВВП страны должна вырасти с 2,2% до 10% к 2030 году, финансовый контроль обязан стать драйвером этих изменений, обеспечивая подотчетность и рациональное использование ресурсов в новой цифровой реальности.[4]

Методологическую основу исследования составил системный подход к изучению процессов трансформации финансового контроля под влиянием цифровых технологий. Исследование базируется на принципах объективности, научной доказательности и комплексности анализа. В процессе работы были использованы следующие методы:

Во-первых, был проведен глубокий контент-анализ нормативно-правовой базы Республики Узбекистан. Объектом анализа стали указы и постановления Президента, регулирующие вопросы внедрения ИКТ в систему государственного управления и финансового контроля, включая стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» и «Узбекистан — 2030».[1] Это позволило выявить иерархию целей и задач государственного регулирования в рассматриваемой сфере.

Во-вторых, применялся метод системно-функционального анализа информационных систем. Были изучены архитектура и функциональные возможности программного комплекса «Государственный аудит», а также механизмы его взаимодействия с автоматизированной системой управления бюджетными организациями «UzASBO».[3] Данный подход позволил оценить техническую готовность инфраструктуры ГФК к переходу на рельсы ИТ-аудита.

В-третьих, использовался метод сравнительного анализа международного опыта. Были проанализированы стандарты и рекомендации международных организаций, таких как ОЭСР и ECOSAI, в области цифрового аудита и внутреннего контроля.[7] Это дало возможность сопоставить вектор развития ГФК в Узбекистане с общемировыми трендами.

В-четвертых, для оценки перспектив использования искусственного интеллекта был применен метод математического моделирования. В частности, рассматривалась модель логистической регрессии для оценки вероятности финансовых нарушений на основе анализа больших данных. Математическая интерпретация риска в данном контексте может быть представлена формулой:

$$P(Y = 1|X) = \frac{exp(\beta_0 + \sum \beta_i X_i)}{1 + exp(\beta_0 + \sum \beta_i X_i)}$$

где $P(Y = 1|X)$ — вероятность совершения нарушения при заданном наборе параметров X (сумма контракта, отклонение цены, история контрагента), а β_i — весовые коэффициенты, полученные в ходе обучения модели на данных системы «Государственный аудит».[9]

Информационной базой исследования послужили официальные данные статистических отчетов, материалы портала открытых данных Республики Узбекистан, аналитические отчеты международных финансовых институтов и публикации в ведущих научных изданиях, посвященных проблемам аудита в цифровую эпоху.[2]

Стратегический контекст цифровизации финансового сектора

Процесс цифровизации государственного финансового контроля в Узбекистане не является изолированным явлением, а выступает частью глобальной государственной стратегии. Принятие Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» создало правовой и институциональный каркас для масштабных преобразований.[1] Согласно аналитическим данным, реализация стратегии направлена на устранение технологического разрыва и повышение прозрачности экономики.

Показатель цифровой трансформации	**Значение наначало периода (2020)**	**Целевой ориентир (2025)**	**Прогноз на 2030 год**
Доля цифровой экономики в ВВП (%)	2,2%	5,0%	10,0%
Количество приоритетных проектов цифровизации	-	> 220	Полнаяинтеграция систем
Обязательные отчисления на цифровыекомпоненты проектов	-	Не менее 5%	Системное внедрение
Доступностьгосуслуг в онлайн-формате	Ограниченная	100%	Проактивный формат

Источник: [2]

Указ Президента № УП-6079 заложил требования к открытости данных. Начиная с июля 2021 года, государственные органы перешли на обязательную публикацию сведений о государственных закупках, выдаче патентов и использовании бюджетных средств на Портале открытых данных.[2] Это решение стало критически важным для внешнего аудита и общественного контроля, обеспечив аналитиков массивами данных, пригодными для машинной обработки.

Функциональная роль ИТ-аудита в системе «Государственный аудит»

Ключевым технологическим достижением стало внедрение программного комплекса «Государственный аудит». Эта система радикально изменила процесс взаимодействия субъектов ГФК и объектов проверки. В отличие от прежней практики, когда аудиторские отчеты формировались вручную на основе бумажных документов, новая система позволяет автоматизировать весь жизненный цикл контрольного мероприятия.[3]

Основными функциональными возможностями комплекса являются:

1. Единый реестр контрольных мероприятий: Регистрация всех плановых и внеплановых проверок исключает дублирование функций различными контролирующими органами.

2. Интеграция с системой «UzASBO»: Система в режиме реального времени получает данные о движении денежных средств, начислении заработной платы и кадровых изменениях в бюджетных организациях.[3]

3. Мониторинг индикаторов эффективности: Система автоматически сопоставляет фактически достигнутые результаты с целевыми показателями государственных программ.

Важнейшим аспектом интеграции с «UzASBO» является контроль за фондом оплаты труда. Система позволяет автоматически выявлять несоответствия в табелях учета рабочего времени, приказах о приеме на работу и фактически выплаченных суммах, используя данные ПИНФЛ и накопительных пенсионных счетов.[3] Это существенно снижает риски возникновения коррупционных схем, связанных с «призрачными сотрудниками».

Эволюция внутреннего аудита и роль искусственного интеллекта Внутренний аудит в Узбекистане проходит путь трансформации от фиксации совершенных нарушений к их предупреждению. Цифровая среда требует от аудиторов навыков ИТ-аудита, который включает в себя проверку надежности информационных систем, анализ целостности данных и оценку кибербезопасности.[9]

Внедрение искусственного интеллекта в практику внутреннего аудита позволяет перейти к анализу всей совокупности транзакций (100% покрытие), что недоступно при традиционных методах. Исследования показывают, что использование ИИ и больших данных (Big Data) в аудите повышает качество обнаружения аномалий на 35-40% по сравнению с ручным анализом.[9]

Технология	Сфера применения в аудите	Ожидаемый эффект
Машинное обучение (ML)	Выявлениепаттернов мошенничества	Раннеепредупреждение злоупотреблений
Роботизация процессов (RPA)	Сверка данных, консолидация отчетности	Снижение трудозатрат на 70%
Блокчейн (Blockchain)	Обеспечениенеизменности транзакций	Полная прозрачность и доверие к данным
Искусственный интеллект (AI)	Предиктивный анализ бюджетных рисков	Оптимизация распределения ресурсов

Источник: [9]

Применение алгоритмов машинного обучения в системе ГФК Узбекистана позволяет анализировать не только финансовые показатели, но и текстовые данные (контракты, спецификации, протоколы). Технологии обработки естественного языка (NLP) могут выявлять подозрительные условия в тендерной документации, которые могут свидетельствовать о коррупционном сговоре.[9]

Барьеры и вызовы цифровой трансформации

Несмотря на значительный прогресс, процесс внедрения цифровых технологий в финансовый контроль сталкивается с рядом объективных сложностей. Одной из ключевых проблем является «цифровой разрыв» между центральными аппаратами министерств и их территориальными подразделениями. Инфраструктурные ограничения в регионах могут снижать эффективность облачных решений для аудита.[4]

Другой серьезный вызов — дефицит квалифицированных кадров. Современный аудитор в Узбекистане должен обладать междисциплинарными компетенциями, сочетая знания в области финансов, права и анализа данных. Недостаток ИТ-компетенций у действующих сотрудников служб внутреннего аудита сдерживает внедрение сложных аналитических инструментов.[9]

Также актуальным остается вопрос кибербезопасности. Концентрация огромных объемов финансовой информации в единых системах, таких как «Государственный аудит», делает их приоритетной целью для кибератак. Постановления Президента № ПП-4452 и ПП-4024 прямо указывают на необходимость усиления контроля за внедрением и защитой ИКТ.[6]

Концептуальный переход к непрерывному аудиту

Результаты исследования показывают, что Узбекистан находится в процессе перехода от дискретного (периодического) контроля к непрерывному аудиту (Continuous Auditing). Этот переход возможен только при условии полной интеграции государственных информационных систем. Взаимосвязь между «UzASBO», порталом государственных закупок и системой налогового администрирования создает так называемое «озеро данных» (Data Lake), которое служит сырьем для аналитических моделей ИИ.[2]

Непрерывный аудит позволяет выявлять отклонения в момент их возникновения. Например, если в системе «UzASBO» регистрируется платеж, не предусмотренный утвержденной сметой расходов, система может автоматически заблокировать транзакцию до получения разъяснений. Это меняет роль аудитора: из «контролера прошлого» он превращается в «монитора настоящего» и «навигатора будущего».[10]

Этические и правовые аспекты применения ИИ

Внедрение искусственного интеллекта в систему ГФК порождает ряд дискуссионных вопросов. Прежде всего, это касается прозрачности алгоритмов (Explainable AI). Если решение о начале внеплановой проверки принимается на основе вывода нейронной сети, объект проверки имеет право знать причины. В законодательстве Узбекистана пока не закреплены нормы, регулирующие использование ИИ в качестве доказательной базы при привлечении к ответственности.[9]

Кроме того, существует риск «алгоритмической предвзятости». Если модель ИИ обучалась на исторических данных, содержащих субъективные ошибки прошлых лет, она может воспроизводить эти ошибки в будущем. Поэтому критически важным является сохранение принципа «человек в контуре управления» (human-in-the-loop), где окончательное решение всегда остается за инспектором или аудитором.[8]

Международная интеграция и стандартизация

Опыт стран ECOSAI и рекомендации ОЭСР подчеркивают важность стратегического планирования в развитии высших органов аудита. Программы реформ, реализуемые в Узбекистане, во многом коррелируют с международными трендами. Внедрение бюджетирования, ориентированного на результат (Results-based budgeting), требует соответствующего ИТ-инструментария для оценки достижения целевых показателей.[7]

Сравнительный анализ с опытом соседних стран, в частности Казахстана, показывает общность вызовов в части интеграции управления рисками во внутренний контроль. Однако Узбекистан демонстрирует более высокие темпы внедрения специализированных ИТ-решений, таких как обязательное квотирование инвестиций в цифровые компоненты (не менее 5% от стоимости проектов), что

обеспечивает устойчивое финансирование технологического обновления.[2]

Влияние на антикоррупционную политику

Цифровизация финансового контроля является мощнейшим инструментом противодействия коррупции. Несмотря на то, что в 2024 году Узбекистан столкнулся с небольшим снижением в рейтинге Индекса восприятия коррупции, долгосрочный тренд остается позитивным благодаря внедрению прозрачных процедур.[11] Цифровые системы исключают прямой контакт чиновника и проверяемого, минимизируют человеческий фактор при принятии решений и оставляют «цифровой след», который невозможно удалить незаметно.

Программный комплекс «Государственный аудит» служит не только инструментом контроля, но и средством профилактики. Знание того, что каждая транзакция анализируется алгоритмами в режиме реального времени, само по себе является сдерживающим фактором для потенциальных нарушителей.

Цифровая трансформация государственного финансового контроля и внутреннего аудита в Республике Узбекистан — это масштабный и необратимый процесс, направленный на создание высокоэффективной, прозрачной и подотчетной системы управления общественными ресурсами. Внедрение ИТ-аудита и технологий искусственного интеллекта в рамках реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан — 2030» позволяет вывести контрольно-ревизионную деятельность на качественно новый уровень.[1]

Основные выводы исследования могут быть сформулированы следующим образом:

1. Созданная в республике нормативно-правовая база обеспечивает необходимые условия для глубокой цифровизации ГФК. Интеграция систем «Государственный аудит» и «UzASBO» является успешным примером создания единого контрольного пространства.[3]

2. Переход к методам ИТ-аудита позволяет обеспечить 100% охват финансовых операций мониторингом, что радикально повышает вероятность обнаружения нарушений по сравнению с традиционными выборочными проверками.[9]

3. Использование искусственного интеллекта и предиктивной аналитики становится ключевым фактором предотвращения финансовых рисков и эффективного противодействия коррупции в государственном секторе.[11]

4. Успех дальнейшей трансформации критически зависит от решения проблем кадрового обеспечения, развития региональной ИТ-инфраструктуры и обеспечения кибербезопасности государственных информационных систем.[6]

Для повышения эффективности ГФК в условиях цифровизации рекомендуется:

- Разработать и внедрить национальные стандарты ИТ-аудита,

гармонизированные с международными стандартами ИНТОСАИ.

- Создать систему непрерывного повышения квалификации аудиторов в области анализа данных (Data Science) и кибербезопасности.
- Расширить использование инструментов машинного обучения в системе «Государственный аудит» для автоматического ранжирования объектов контроля по уровню риска.
- Обеспечить дальнейшее развитие Портала открытых данных, увеличивая глубину и детализацию публикуемой финансовой информации.

В долгосрочной перспективе синергия цифровых технологий и профессиональной экспертизы аудиторов позволит Узбекистану построить модель государственного контроля, способную не только эффективно выявлять нарушения, но и активно содействовать достижению национальных целей развития, заложенных в Стратегии «Узбекистан — 2030».[5]

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIYAVIY NAZORATDA RISKLARNI BAHOLASH VA GLOBAL IQTISODIY XAVFLARNI KAMAYTIRISH

Axunova Shohistaxon Nomanjanovna
FDTU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti
Farhodjon Ro'ziboyev Bahodir o'g'li
FDTU, Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

